

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

JAHON SIYOSATI VATARIX FAKULTETI

JAHON SIYOSATI KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida*

**Karimova Aziza Kurbonazar qizi**

**O‘ZBEKISTONDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIK XUSUSIYATLARI:**  
**SIYOSIY TAHLIL**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**5310100 – SIYOSATSHUNOSLIK**

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Qodirov A.Q.

Toshkent – 2013

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB.</b>	<b>XAVFSIZLIK MUAMMOSINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR .....</b>	<b>9</b>
1.1.	Xavfsizlik tushunchasining mazmun – mohiyati .....	9
1.2.	Xavfsizlik tushunchasiga oid konseptual qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi .....	16
<b>2-BOB.</b>	<b>MUSTAQILLIK SHAROITIDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIK VA UNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>26</b>
2.1.	Xavfsizlik tizimida mafkuraviy xavfsizlik .....	26
2.2.	Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ularning zararli oqibatlari (ommaviy madaniyat misolida) .....	32
2.3.	Globalashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	41
	<b>XULOSA.....</b>	<b>52</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>56</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida jahon siyosatida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy o'zgarishlar natijasida xalqaro munosabatlar tizimidagi vaziyat tubdan o'zgardi. Bu ikki qutbli dunyo hamda “sovuq urush” ning tugashi, ideologik qarama–qarshilikning parchalanishi, dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlarning tashki topishi bilan bog'liq. Natijada xalqaro munosabatlarda yangi jahon tartiboti vujudga keldiki, uning shakllanishi xalqaro munosabatlar maydonida ko'p qutbli markazlarning paydo bo'lishi hamda jahon globallashuvi sharoitida mushkullashmoqda va dolzarblashmoqda. Qolaversa “bugungi dunyoda jadal o'zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, ba'zi konfessiyalararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to'qnashuvlarning kuchayishi, hali beri davom etayotgan jahon moliyaviy, iqtisodiy inqirozi hamda uning oqibatlarini jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda<sup>1</sup>.

Mazkur jarayonlar mamlakatlarda odil fuqarolik jamiyatini barpo qilish, huquqiy – demokratik davlat qurish hamda inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish kabi vazifalarni amalga oshirishni ancha qiyinlashtirmoqda. Hozirgi davrni globallashuv davri deb atash rasm bo'lib bormoqda. Ma'lumki globallashuv obektiv va qonuniy jarayon bo'lib, o'ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon, birinchi galda, davlatlarning xalqaro maydonga erkin chiqish va xalqaro hamjamiyat bilan yaqindan hamkorlik qilishga, o'z milliy manfaatlarini turli xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta'minlashiga keng imkoniyatlar yaratdi. Ammo, shuni aytish kerakki, vaqt o'tishi bilan globallashuvning o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, uning qator salbiy jihatlari ham namoyon bo'la boshladi. Davlatlarning bir-biriga bog'liqligini sezilarli darajada o'sishi shuni ko'rsatmoqdaki, ma'lum mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea-hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalmoqda va o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Buning oqibatida mintaqa xavfsizligi va

---

<sup>1</sup> Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. // Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so'zi. 2012. 8-dekabr.

barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Mavjud vaziyat tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar ya'ni an'anaviy tahdidlarning noan'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofaning yaqinlashishi hamda o'zaro bog'liqlikning kuchayishi bilan murakkablashmoqda. Bu holat milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi asr globallasuv, geosiyosat asri bo'lib, unda avval uchramagan yaqinlashuv va birikish ko'zga tashlanmoqda, o'zaro ishonch tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda, davlatlarning barqarorlikni ta'minlash faoliyatini kuchaytirish va xalqaro mojarolarni bartaraf etish dolzarb bo'lib qolmoqda. Jahon siyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ko'p qutbli markazlarning yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hamkorligi uchun ochiqdan-ochiq da'volari – yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida xavfsizlikka tahdidlarning noan'anaviy turlari bo'lmish xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstrimizm, fundamentalism, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, separatizm va turli makuraviy tahdidlarni vujudga kelishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida, Yer sharining har bir hududida, jumladan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: “Muayyan mamlakatlarda va Markaziy Osiyoda ahvolning tez o'zgarib borayotganligi va tahdidlarning saqlanib qolayotgani, turli kuchlarning imkoniyatlari va resurslariga egaligi bu mintaqada yashovchi davlatlar va xalqlarni tashvishga solmasdan qolmaydi”<sup>1</sup>.

Bugungi kunda globallasuv jarayonining turli davlatlar va xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sirini ilmiy tadqiq etishga e'tibor kuchayib bormoqda. Globallasuv jarayoni hozirgi kunda mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki globallasuv jarayonining salbiy xususiyati bo'lmish mafkuraviy-ma'naviy

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Inson va uning huquq va erkinliklari oily qadryat. –T.14. –Toshkent:O'zbekiston,2006. –B.127.

tahdid eng avvalo tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlardan iboratdir. Mafkuraviy tahdidlar ta'sirida chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" ning yopirilib kirishi eng ayanchli holdir. "Ommaviy madaniyat" ("Public culture") niqobi ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlarni yoddan chiqarmaslik kerak. Prezidentimiz e'tirof etganidek "ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin"<sup>1</sup>.

Mazkur muammolarni hal etish, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, yoshlar ma'naviyatini turli mafkuraviy tahdidlardan asrash hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biridir. Qolaversa xavfsizlik va xavfsizlikning muhim yo'nalishi bo'lgan mafkuraviy xavfsizlik siyosatshunoslik fanining eng dolzarb muammolaridan biridir. Keyingi paytlarda aksariyat olimlar, siyosatshunoslar va tadqiqodchilarning ilmiy tadqiqodlarini ushbu sohaga yo'naltirilganligi ham buning yorqin isbotidir. Biroq, xavfsizlik muammosini ham milliy, ham mintaqaviy, ham global darajada o'rganuvchi hamda uning nazariy va amaliy mohiyatini to'liq ochib beruvchi tadqiqot ishlariga ehtiyoj katta.

Hozirgi kunda mintaqa davlat rahbarlari tomonidan barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan faol siyosat olib borilmoqda. Mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllanishida O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mintaqada xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. (Shanxay hamkorlik tashkilotida so'zlagan nutqi. – T.:Manaviyat, 2008 –B.12.

hukumati tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy tashabbuslar va izchillik bilan olib borilayotgan tashqi siyosat asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan g'oyaviy va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur muammoni chuqur o'rganish, tahlil etish va zarur xulosalar chiqarish juda muhim. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi.** Bitiruv malakaviy ishida xavfsizlik tushunchasining mazmun mohiyati, xavfsizlik tushunchasiga oid konseptual qarashlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari shuningdek, hozirgi globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ularning real xavfi, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni, ayniqsa yoshlarni bunday xavf-xatarlardan ogoh etish, asrash kabi masalalarni tahlil qilishda bir qator mamlakatimiz hamda xorijlik olimlarning asarlarini o'rganib chiqilgan.

Ma'lumki xavfsizlikning turli jihatlari bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning qator asarlarida o'z aksini topgan. Unga xavfsizlikning tub mohiyati yo'nalishlari, turlari, xavfsizlikni ta'minlash masalasi bilan bog'liq muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va chora-tadbirlari ham metodologik, ham nazariy, ham amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilingan.<sup>1</sup> O'zbekiston Prezidentining o'tgan yillar davomida nafaqat Respublika, balki butun mintaqa baqarorligini ta'minlash, tinchlik va xavfsizlikni saqlash yo'lida qilgan harakatlari hammamizga ma'lum. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asar to'laligicha xavfsizlik muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif muammoning mintaqadagi mavjudligini ko'rsatibgina qolmay, balki uni hal etishning aniq yo'llarini ko'rsatib bergan. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida esa bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma'naviyat sohasida vujudga

kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodni qalbi va ongini turli zararli mafkuraviy tahdidlardan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Prezident Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan prinsipial qoidalar bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Xavfsizlik, mafkuraviy xavfsizlik globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ular bilan bog'liq mavzular mamlakatimiz siyosiy fani uchun yangi yo'nalish hisoblanadi. Mazkur muammolarni o'rganishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari mustaqillikdan so'ng boshlandi. Qisqa davr ichida xorijda va mamlakatimizda ushbu mavzuni u yoki bu qirralarini ochib berishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo'ldi<sup>1</sup>.

Umuman, tadqiqot mavzusiga oid ko'plab adabiyotlar va materiallar bilan tanishib chiqdim va o'rganishga harakat qildim. Ma'naviyatga qarshi qaratilgan hurujlarning real xavfi haqida, xalqimiz huquqiy demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati asoslarini yaratayotgan murakkab va tahlikali zamonda odamlarni, ayniqsa yoshlarimizni bunday xatarlardan ogoh etish, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga qaratish, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarni belgilab olish va bu vazifalarni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish zarur vazifadir.

### **Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:**

- Xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish.
- Xavfsizlik tushunchasiga oid konseptual qarashlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- Xavfsizlik tizimida mafkuraviy xavfsizlik va uning mohiyatini tahlil qilish;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi. – T.: O'zbekiston. Karimov I.A. От региональной безопасности к безопасности глобальной. Выступление на специальном торжественном заседании Генеральной Ассамблеи ООН по случаю 50-й годовщины ООН, 24-сентября. 1995 // Экономика и статистика. – 1995. –N10-12. С.2-3;

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. B.315.; Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1998.T.B.413. Karimov I.A. tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimiz, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.- T.: O'zbekiston,2004.T.12.-B 243-276. Karimov I.A.O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston,2004.T.13-B.174-223; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat.-B.176. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash hayotimizning yanada obod va erkin bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. – T.: O'zbekiston 2012.

- Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ularning zararli oqibatlarini (ommaviy madaniyat misolida) o'rganish;

- Globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos yo'llari va xususiyatlarini o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekt**i etib mafkuraviy xavsizlik va uning o'ziga xos xususiyatlari olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmet**i sifatida esa mustaqillik sharoitida O'zbekiston xavfsizlik tizimida mafkuraviy xavfsizlik va uni ta'minlashning samarali va yo'llarini izlash bilan bog'liq masalalar belgilandi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini** Prezident Islom Karimovning globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va bu tahdidlarning zararli oqibatlari haqida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi asarlari va ma'ruzalari, shuningdek, mamlakatimiz olimlari hamda xorijlik olimlar, tadqiqotchilar, soyosatshunoslarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Malakaviy bitiruv ishida tizimli, daliliy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** BMI da ilmiy yangiliklarga ega bo'lgan quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Xavfsizlik tushunchasiga oid konseptual qarashlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil etish.

- Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ularning zararli oqibatlarini ko'rsatib berish.

- Globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Ish natijalaridan "O'zbekiston tarixi" "Siyosatshunoslik", "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi fanlarning mavzuga oid ma'ruzalarini o'qitishda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fakultetlarda mavzuga oid masalalarni o'rganishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** BMI kirish, 2ta bob, 5ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **1-BOB. XAVFSIZLIK MUAMMOSINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1. Xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati**

Ikki qutbli tizimga asoslangan xavfsizlik tizimining parchalanishi xalqaro munosbatlarga davlatlar uchun juda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Lekin shu bilan birga bir qator taxdid va xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda fan va texnikaning rivojlanishi davlatlarning o'zaro hamkorligini o'sib borishiga, dunyo xalqlari hayoti va turmushining yaxshilanishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, bir qancha salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Mazkur holat dunyoning har bir davlati uchun birdek tashvish tug'diruvchi omillar hisoblanib, xavfsizlikning yangi tizimi va nazariyasini ishlab chiqishni talab etmoqda. Hozirgi asr globallashuv, geosiyosat asri bo'lib, unda avval uchramagan yaqinlashuv va birikish ko'zga tashlanmoqda, o'zaro ishonch tizimini ishlab chiqishni toqazo etmoqda, davlatlarning barqarorlikni ta'minlash faoliyatini kuchaytirish va xalqaro mojarolarni bartaraf etish dolzarb bo'lib qolmoqda<sup>1</sup>. Mazkur tizimni ishlab chiqish uni samarali faoliyatini ta'minlash davlatlarning "Xavfsizlik" nazariyasiga bo'lgan konseptual fikrlari, qarashlari va yo'nalishlarining o'zaro o'xshashligiga bog'liq. Bugungi kunda xavfsizlik borasida fikrlarning xilma-xilligi, xavfsizlik tushunchasiga umumiy ta'rifning yo'qligi ko'zga tashlanadi. Bu holat davlatlardan o'z milliy manfaatlari mavjud xavfsizlik tizimlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Zero, asosiy vazifa bizning fikrimizcha, manfaatlar uyg'unligi va ular orasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat. Shuning uchun ham "xavfsizlik" tushunchasiga oid konsepsiyalarni o'rganish, ular orasidagi umumiylik va farqlarni belgilash har bir davlat oldidagi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xavfsizlik insonlar, jamiyatlar, davlatlar, xalqlarning obektiv ehtiyoji, ular faoliyatining bosh omili va mavjudligining zaruriy sharti ekan, biz oldimizga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Osiyo hamkorlar va ishonch choralari bo'yicha kengashga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida so'zlagan nutqi.//www.press-servise.uz

“xavfsizlik” kategoriyasining mazmun-mohiyatini o’rganishni asosiy maqsad qilib qo’ydik. Qolaversa xavfsizlik taraqqiyotning asosiy poydevori ekan, bu kotegoriyani alohida tadqiqot obekti sifatida o’rganish juda muhim. “Xavfsizlik” atamasi ruscha izohli lug’atda “ma’lum bir xavf-xatarning yo’qligi” deb izohlanadi<sup>1</sup>. Ingliz tili bo’yicha tuzilgan Oksford lug’atida xavfsizlikka (security) o’zida quyidagi tushunchalarni aks ettirgan holat deb ta’rif beriladi:

1. Himoya, qo’rquvdan qutilish, yoki undan soqit bo’lish; 2. Mustahkamlik, qat’iylik, kafolat; 3. Ishonchlilik, barqarorlik va mustahkamlilik<sup>2</sup>.

Ruscha-o’zbekcha lug’atda “bezopasnost” xavfsizlik, bexavflik, xavf-xatarsizlik, xavf-xatardan holi, xavfsiz, zararsiz, bezarar, xavf-xatar tahdidi yo’q deb tarjima qilinadi<sup>3</sup>. Bular albatta xavfsizlik tushunchasining lug’aviy ma’nosidir. Ko’rinib turibdiki xavfsizlikka ta’riflar turli tuman. Bir tomondan ularda ma’lum bir umumiylik mavjud bo’lsa, ikkinchidan, uning qanchalik ko’p qirrali ekanligi ma’lum bo’ladi. Zero, xavfsizlik bugungi kunda insoniyatning barcha hayot faoliyati sohalarini o’zida mujassam ettirmoqda.

Xavfsizlik tushunchasi obektiv jihatdan aniq tarixiy xarakterga ega bo’lgan “Tabiat – inson – jamiyat” tizimi bilan chambarchas bog’liq bo’lgan ijtimoiy voqelik hisoblanadi. Xuddi shunday, tabiat, jamiyat, davlat, insonlar, millatlar, umuman, barcha institutlarga absolyut tenglik bo’lmaydi, har doim ular o’rtasida bir tomonning ustuvorligi amal qiladi. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo’lsak “Xavfsizlik” yaqindagina paydo bo’lgan tushuncha emas. Bu tushunchani mazmun mohiyatini ochib berishga turli davrlarda turlicha yondashuvlar bo’lgan. Taniqli olim S.Otamurotov “Xavfsizlik” deganda voqea, hodisa, jarayon va munosabatlar amaliyotidagi ustuvorlikning kuchga aylanishi sharoitida kuchlining nisbatan zaif yoki “kuchsizroq” tomonga o’tkazadigan salbiy ta’siridan himoyalanganlik imkoniyati va darajasini tushunish mumkin”<sup>4</sup> deb ta’rif bersa, siyosatshunos S. Toshev “Xavfsizlik - shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamiyat, davlat, sivilizatsiyaga

<sup>1</sup> Лопатин В.В. Лопатина А.Е. Русский толковый словарь –М.: Русский язык, 1994-с.333.

<sup>2</sup> Кашинская. Л. Ф. Государственность. Источник: национальная безопасность: проблемы теории – Т: Академии МВД Республики Узбекистан, 2003. С.12.

<sup>3</sup> Ruscha-Uzbekcha lug’at. – T., 1983. – 657.

<sup>4</sup> Otamuratov S. Milliy-ma’naviy xavfsizlik // jamiyat va boshqaruv” 4-son 2009. 524.

tegishli muhim manfaatlarning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir” - deb yozadi<sup>1</sup>. Xuddi shunday “Xavfsizlik - obektning xavfsiz holati xavf-xatardan holiligi, vaziyatning yomon tomonga o’zgarishligi”<sup>2</sup>; “davlatga ichki yoki tashqi muhitdan bo’ladigan tahdidlarga qarshilik ko’rsatishga millatning yetarli harbiy va iqtisodiy salohiyatini ta’minlovchi holat”<sup>3</sup>;

“Tashqi tahdidlardan saqlanishning real imkoniyati”; “dunyo xalqlari xavfsizligi yoki tinchligiga tahdid soluvchi turli xil omillardan holi etilgan holat” - deb ta’riflar berilgan. Yuqorida keltirilganlardan ko’rinib turibdiki, xavfsizlik tushunchasi juda keng qamrovli, dolzarb va ko’p ma’noli tushunchadir.

A.V.Vozjenikov xavfsizlik tushunchasini “Hayot faoliyati xavfsizligi” nuqtai nazaridan ko’rib chiqib quyidagi tizimga ajratishni taklif etadi<sup>1</sup>.

**Hayot faoliyati xavfsizligi** - bu insonning jamiyat va moddiy olamning turli xil salbiy omillari ta’siridan himoyalanganlik holatidir. Demak ushbu ta’rifda tabiat va jamiyat “hayot faoliyati xavfsizligi” ob’ekti sifatida ishtirok etadi.

**Insonning hayot kechirish xavfsizligi** - bu har bir shaxsning organizmiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi turli xil omillardan himoyalanganlik kafolatidir.

**Hayvonot va o’simlik dunyosining xavfsizligi** - bu olamning butunlay yo’qolib ketishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillardan himoyalanganlikdir.

**Milliy xavfsizlik** - bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini hamda xalqaro munosabatlarda teng huquqli va mustaqil ishtirokini ta’minlashda, suveren va progressiv rivojlanishda, ichki barqarorlikni saqlashda tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik darajasidir.

**Mintaqaviy xavfsizlik** - bu mintaqa davlatlari o’rtasidagi aloqalarga, urush va beqarorlik tahdidini solayotgan omillardan holi bo’lishdir. Mintaqaviy xavfsizlik ma’lum bir geosiyosiy muhitda joylashgan va bir-biriga tarixan bog’liq bo’lgan

<sup>1</sup> O’zbekistonda politologiya. (2001 yil.18-oktabrda Toshkent shahrida o’tkazilgan respublika milliy-amaliy konferensiya .....) – T. ;Sharq 2002. –B.192.

<sup>2</sup> Периодический обзор ООН. – 1991. – Т. XIV. –с.96-97.

<sup>3</sup> Скакунов Э. И. Всеобъемлющая безопасность: модель перестройки международных отношений // Советское государство и право. – 1997. - №5. –с.104.

xalqlar, millatlar, davlatlarning hayotiy muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan davlatlararo hamkorlik asosida himoyalanganlik holatidir<sup>1</sup>.

**Xalqaro (global) xavfsizlik** – bu dunyo davlatlarining o'zaro harbiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, hamkorligiga, suvereniteti va mustaqil rivojlanishiga tahdid solayotgan munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

BMT nizomida belgilanishicha, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash majburiyati BMT ning Xavfsizlik Kengashi zimmasiga yuklatilgan. Aynan mazkur universal xalqaro tashkilotning Xavfsizlik Kengashiga nisbatan sanksiyalar qo'llash huquqi berilgan.

Xavfsizlik tushunchasini o'rganishning turli ilmiy-uslubiy yondashuvlari mavjud. Shulardan biri "Xavfsizlikning tizimli – tuzilmaviy tasnifi" dir.<sup>1</sup>

Xavfsizlikning tizimli-tuzilmaviy tasnifi "Xavfsizlik siyosati yuzasidan xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy jihati samaradorligini oshirishga amaliy yordam beradi. Shuningdek, bu tahlil ilmiy uslublarni maqsadli tanlash, o'rinli qo'llash hamda uni ta'minlashning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi deyish mumkin.

Xavfsizlik, xavf va tahdidlarning mavjud emasligi bo'lmay, balki xavfsizlik ob'yektlarning funksional holatini ta'minlashda turli tahdid va xabarlardan himoyalanganlik holati bo'lib, xavfsizlik tizimini tashkil etishning asosiy tamoyillariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Xavfsizlik muammosi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Bu muammo insoniyat va davlat shakllanishi bilan yuzaga kelgan. Xavfsizlik nazariyasi tarixiy bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Insoniyatning xavfsizlikka intilishi natijasida oldin bir jamiyatda, so'ng davlatda va oxir-oqibatda xalqaro miqyosda xavfsizlik tizimi shakllandi<sup>2</sup>.

Xavfsizlikni ta'minlash yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlar shu qadar o'zgaruvchan va moslashuvchan xususiyat kasb etib bormoqdaki, dastavval ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy jihatlarini, ya'ni ob'ektga nisbatan

---

<sup>1</sup> Возжеников А.В. Национальная безопасность: теория, практика, стратегия. –М: Модуль, 2000. –С.51

<sup>2</sup> Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. –Т. Akademiya, 2010. –В.17.

yo'naltirilgan ishini belgilab olmasdan turib, mavjud himoya tizimini mukammallashtirish haqida fikr yuritish noo'rin. Bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan turli xavf-xatarlarga faqatgina xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazari asosida munosabatda bo'la olishning o'zi yetarli emas<sup>1</sup>.

Negaki, xavfsizlikni ta'minlashni rejalashtirish uchun real va ehtimolli xavf-xatarlarning xarakterini aniqlab olish talab etiladi. Bu o'z navbatida, ularni keltirib chiqargan sabablarni belgilab olishni taqozo etadi, hamda aniq ilmiy uslublardan foydalanishni, olingan natijalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish talab etadi.

Xavfsizlik muammosiga yondashuvlar tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib kelgan. Tabiatdan ma'lumki har qanday jonzot ma'lum bir makon va zamonda yashar ekan, muayyan hududni chegaralashning turli yo'llari orqali o'zini tashqi xavf-xatardan himoya qilishga harakat qiladi. Mazkur holat dastlab "Jamiyat", so'ng "davlat"ning yuzaga kelishi bilan amalga oshirildi. Davlatning paydo bo'lishi bilan jamiyatning siyosiy hayoti va munosabatlari shakllanib bordi. Davlat munosabatlarini yo'lga qo'yish va ularni tartibga solish jarayonida jamiyatning siyosiy namoyondasiga aylanib bordi.

Kishilik jamiyatida davlatning paydo bo'lishi bilan ularning o'z manfaatlari va maqsadlarini amalga oshirishga intilishi asosida o'zaro nizolar, qonli urushlar kelib chiqqan. Bu esa davlatlarning mustaqil, erkin yashash, suverenitetini ta'minlashni taqozo etgan. Shu tariqa xavfsizlik masalasiga bo'lgan ehtiyoj yillar, asrlar davomida o'sib bordi va shakllandi<sup>2</sup>.

Umuman, mustaqillikkacha xavfsizlik deyilganda dastavval davlat xavfsizligi nazarda tutilib, uning xavfsizligidan boshqacha xavfsizlik bo'lishi mumkin emas, deb tushunishar edi. Ammo, g'arb ilmiy doiralarida "Milliy xavfsizlik" tushunchasi keng qo'llanib kelinardi. Negaki, "milliy xavfsizlik" bir vaqtning o'zida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash vazifasini anglatuvchi

---

<sup>1</sup> Samarov R. Malkov S. Обеспечение стабильности-гарант демократического общества. Falsafa va huqu organlarining dolzarb masalalari (1-kitob,-T: 2010, -B. 57-59).

<sup>2</sup> Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari.-T.: "Akademiya". 2010 –B.19.

murakkab holatdir. Mustaqillik tufayli xavfsizlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi<sup>1</sup>.

Xavfsizlikning asosiy subektlari sifatida shaxs, jamiyat va davlat maydonga chiqdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquq tamoillariga asoslangan holda 1997 – yilda mamlakatimizda Milliy Xavfsizlik Konsepsiyasi qabul qilindi.

Milliy xavfsizlik oddiy jismoniy hayotni saqlanishdan ko'ra, ancha kengroq tushunchadir – deb izohlaydi Amerikalik S. Kamlan. Uning yozishicha, milliy xavfsizlik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayrim siyosiy voqelikni aniqlash va anglashga yordam beradi. Davlatlar o'z milliy xavfsizligini ta'minlash yo'lida vakumda harakat qilmaydilar. Ularning erishishi mumkin bo'lgan natijalari qisman xalqaro tizimning xususiyatlariga va unda egallagan mavqeiga bo'liq.<sup>1</sup> Huquqshunos olim A. Rahmonov milliy xavfsizlikni “milliy qadriyatlar, milliy manfaatlar va milliy hayot tarziga real tahdid solayotgan tashqi va ichki xavflarni mavjud bo'lmagan yoki oldi olingan, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlovchi davlatning holati” deb izohlaydi<sup>2</sup>.

Ko'rinib turibdiki, “milliy xavfsizlik” tushunchasi xavfsizlik kategoriyasining barcha guruhlarini qamrab oladi. Demak, xavfsizlik atamasi keng qamrovli tushuncha. Unung bugungi kundagi xususiyati shaxs bilan jamiyat manfaatlarining davlat manfaatlariga nisbatan yangicha musosabatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy xavfsizlikka bo'lgan mazkur yo'nalish xavfsizlikni ta'minlovchi subektlar tomonidan himoyalananayotgan barcha xavfsizlik turlarini o'z ichiga birlashtirishga imkon yaratadi<sup>3</sup>. Ushbu yangicha yondashuv milliy xavfsizlik tushunchasidan ham xalqaro, ham ichki ishlarda keng foydalanish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda, milliy xavfsizlik ommasini O'zbekistonda hamda

---

<sup>1</sup> Ramazonov I. Mo'minov E. Politologiya. Darslik. “Adolat” 1997 –B.22.

<sup>2</sup> Новоселова На Службе антиразрядки: Доктрина “национальной безопасности” во внешней политике США в. 70-80 годы. – М. 1984 – С. 10.

<sup>3</sup> Рахманов А. Р. Международно – правовые аспекты обеспечения всеобъемлющей национальной безопасности Республики Узбекистан: Автореферат диссертации доктора юридических наук. – Т., 2001. С.13.

boshqa ko'p millatli davlatlarda qo'llanilishi ham nazariy ham amaliy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Xavfsizlik tushunchasini mazmun mohiyatini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xavfsizlik obektiv holatda aniq tarixiy xarakterga ega bo'lgan tabiat – inson – jamiyat tizimi bilan yaqin aloqada bo'lgan ijtimoiy voqelik bo'lib, u mutloq emas, balki o'zining mantiqiy mohiyatini aniq obyektlar yoki inson faoliyati doirasidagi muloqotda aks ettiradi.

2. Bugungi kunda xavfsizlikka berilgan yagona ta'rif yo'q. Adabiyotlarda berilgan izohlar o'sha davr va vaziyatdan kelib chiqqan holda konkret (aniq) xususiyatlarni tahlil qilish oqibatida berilgan. Shunga qaramasdan, xavfsizlikka berilgan ta'riflarning barchasida ma'lum darajada umumiylik va o'zaro farqlar mavjud. Buning asosiy sababi esa xavfsizlikning inson hayotini barcha sohalarini (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, harbiy, ekologik va h.k.) o'zida aks ettirgan kompleks tizumni tashkil etishdir.

3. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik tizimida milliy xavfsizlik kategoriyasi asosiy o'rin egallaydi. Chunki faqatgina milliy xavfsizlik kategoriyasi qolgan xavfsizlik kategoriyalari bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

4. Xalqaro munosabatlardagi vaziyat milliy xavfsizlik tushunchasini davlat xavfsizligi sifatida ko'ruvchi tor va bir tomonlama qarashlarning o'zgarishiga olib keldi. Milliy xavfsizlik nafaqat bir millat xavfsizligi, balki u shu hududda yashaydigan xalqlar, millatlar xavfsizligidir. Shu nuqtai nazardan milliy xavfsizlik iborasini ko'p millatli davlatlarda, xususan O'zbekiston Respublikasida qo'llanilishi jamiyatning barcha qatlamlari va sohalarini qamrab olishga yordam beradi.

5. Milliy xavfsizlikka berilgan ta'riflarni o'rgangan holda, biz quyidagicha xulosaga keldik: Milliy xavfsizlik ijtimoiy voqelik bo'lib, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid solayotgan tashqi va ichki omillarni aniqlash, ularning oldini olish bo'yicha huquqiy normativlar bilan mustahkamlangan holat yig'indisidir.

## **1.2. Xavfsizlik tushunchasiga oid konseptual qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi**

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning turli sohalarida vujudga kelgan muammolar xavfsizlikka bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- **birinchidan**, xavfsizlikni ta'minlashning yangi tendensiyalarini belgilash, ularni shakllantiruvchi omillar, shart – shroitlarni o'rganish;
- **ikkinchidan**, xavfsizlik bilan bog'liq jarayonlarning muhim, asosiy, doimiy, takrorlanuvchi voqealarning ajratib olish;
- **uchinchidan**, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mavjud qarashlar, konsepsiyalar, doktrinalar va yo'nalishlarni tanqidiy tahlil etish;
- **to'rtinchidan**, xavfsizlikni izdan chiqarishga harakat qilayotgan noan'anaviy muammolar – terrorizm, diniy ekstrimizm, shovinizm, separatizmni vujudga keltirayotgan sabablarni o'rganish va h.k.

G'arb mamlakatlarida xavfsizlik haqidagi fikrlar o'zining rivojlanish jarayonida turli xil bosqichlarni bosib o'tgan. Xavfsizlikni ta'minlash borasidagi fikrlarning ilk bosqichi taxminan qadimgi va o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Sitseron, Demokrit, Sokrat va Aristotel kabi ko'plab mutaffakirlarning g'oyalarida asosiy urg'u individ xavfsizligiga qaratilgan bo'lib, unda shaxsga nisbatan suyuqasdlikka qarshi kurash asosiy vazifa deb belgilangan. Davlatning asosiy vazifasi esa fuqaroning hayot va mol-mulk xavfsizligini ta'minlash deb e'tirof etilgan.

Oxirgi yuz yil davomida xavfsizlik sohasida ish olib borgan aksariyat amerikalik olimlar o'zlarining konsepsiyalarida Jon Lokkning liberal ta'limotini qabul qilganlar. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlarining milliy xavfsizlik konsepsiyasi so'zsiz liberalizm asosida qurilgan bo'lib, amerikaliklar o'z milliy xavfsizlik siyosatida shaxs xavfsizligini oliy qadriyat sifatida ko'radilar. Asosiy e'tibor shaxsning erkinliklari hamda

huquqlariga qaratiladi va davlat shaxs xavfsizligi himoyasiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Ba'zi bir liberal maktablar ta'limotida davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini bir – biriga qarama – qarshi qilib qo'yish holatlarini ham kuzatish mumkin. Xavfsizlikni bir turini ikkinchisiga nisbatan ustun qo'yilishi jamiyat va davlat totalitar tuzumga olib kelishi muqarrar. Demak, davlat xavfsizligi jamiyat va shaxs xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs xavfsizligini ta'minlash oxir – oqibatda barcha ijtimoiy voqelikda (davlat, jamiyat) barqarorlikka va rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham bugungi zamonaviy taraqqiyot jarayonida shaxs erkinliklari va huquqlari hamda uning xavfsizligini ta'minlash uni himoya qilishga mas'ul bo'lgan siyosiy hokimiyat davlatga bog'liq. Shaxs va jamiyat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning asosiy vazifasidir. Bunda davlat alohida vakolatlarga ega . Ammo bu jarayonda shaxs va jamiyat manfaatlari ustidan mamlakat manfaatlarning ustun qo'yilishi mazkur davlat faoliyatiga katta tahdid soladi va beqarorlik holatini yuzaga keltiradi. Shu bois, rivojlangan davlatlarning aksariyatida xavfsizlik tushunchasi har bir fuqaroning minimal hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash deb e'tirof etiladi. Biroq hozirgi zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalarida birinchi o'ringa shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligi emas, balki xalqaro xavfsizlik oliy qadriyat sifatida ko'tarilmoqda. Shunday konsepsiyalardan biri xalqaro hamjamiyat nazariyasidir. Xalqaro hamjamiyat tushunchasining tahlili milliy davlatlarning dunyodagi o'rni va davlat suverenitetining istiqbollari borasidagi tasavvurlar bilan bevosita aloqador. Bu ta'limotni qo'llab-quvvatlovchi bir guruh tadqiqotchilar milliy davlatlarni xavfsizlikning asosiy sub'ekti va xalqaro siyosiy tashkilotlarning asosi sifatida ko'rib chiqadilar, boshqa qolgan xavfsizlikning sub'ektlari esa milliy davlatlarga nisbatan tobe'lik (bevosita bog'liq) xususiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida xalqaro hamjamiyat nafaqat notenglik va bog'liqlik nuqtai nazaridan, balki xalqaro munosabatlarga ko'ra ham sinflanadi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy xavfsizlikning barcha aspektlarini (qirralarini) ochib

berishga xizmat qiladi. Shunga asoslangan holda, ular tomonidan dunyo hamjamiyati yagona va bo'linmas (един и неделим) degan xulosa beriladi.

Ikkinchi guruh tadqiqotchilar o'zlarining xavfsizlik borasidagi konseptual g'oyalarida davlatning rolini pasaytirishga urinadi. Masalan, angliyalik olim D. Bertoning ta'rificha, bugungi kunda milliy davlatlarning o'rnini xalqaro hamjamiyat belgilamoqda. Buning isbotini xalqaro munosabatlardagi globalizatsiya va integratsiya jarayonlarida ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki, xavfsizlikni davlat markaz kuchlari emas, aksincha ularning o'zaro aloqalari belgilaydi. Xalqaro hamjamiyat xavfsizligini esa davlatlarning o'zaro munosabatlari to'g'ridan – to'g'ri aniqlab beradi. Xavfsizlik to'g'risidagi bu kabi konsepsiyalar xalqaro munosabatlar tizimida davlatning rolini pasaytirish orqali turli xil nodavlat tashkilotlarning o'zaro aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirishni talab etadi. Ammo XX asrning 40 – 50 yillarida jahonda davlat xavfsizligi xalqaro – kollektiv xavfsizlik bilan mutlaq mos kelmasligini e'tirof etgan konseptual fikrlar bo'lgan. Ular asosan amerika jamiyatining “siyosiy realizm” maktabi tomonidan ilgari surilgan. Siyosiy realizm maktabining asosiy manbaalarini N. Makiavelli, T. Gobbs, F. Gerel, G. Morgentai, G. Kissinjer, Z. Bjezinskiy va boshqa olimlarning asarlari tashkil etadi. Ularning ilmiy tadqiqotlarida strategik hamkorlik sharoitidan kelib chiqib, milliy manfaatlar va davlat xavfsizligi oliy qadriyat sifatida qaraladi. Milliy manfaatlar davlat tashqi siyosatining asosini tashkil etuvchi dominant hisonlanadi. Ularning asarlarida davlatlar xoh katta xoh kichik bo'lishiga qaramasdan, universal xususiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Siyosiy realizm ta'minoti xalqaro munosabatlarni alohida davlatlar mustaqil siyosatining yig'indisi deb hisoblaydi. Har bir davlat o'z milliy manfaatlari yuzasidan siyosat olib borishi ta'kidlanadi. Mazkur faoliyat natijasida davlatning suvereniteti borasidagi g'oyalar kelib chiqadi<sup>1</sup>. O'z navbatida, ular tomonidan jahon siyosati qudratli davlatlar orasidagi kuchlar muvozanatining tizimi sifatida e'tirof etiladi. Siyosiy realistlar xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarning to'qnashuvi muqarrar degan xulosa beradilar. Ularning ta'limotlarida dunyo

muammolarini hal etishda kuch omili muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, AQShning prezidenti J. Bush va uning hukumat a'zolari respublikachilar partiyasi vakillari edilar. Ularning tashqi siyosiy strategiyalari realizm ta'limotiga asoslangan edi. AQSh va uning ittifoqchilari tomonidan Afg'oniston va Iroqda olib borilgan harbiy harakatlar buning misolidir<sup>1</sup>.

Amerikalik olim Kolin Grey o'zining "Qudratli davlatlarning geosiyosati" nomli mashhur asarida dunyoning zamonaviy holatiga geosiyosiy qarama – qarshilik nuqtai nazaridan yondashadi. U dunyoda hukm surayotgan strategik holatni davlatlar manfaatlarining o'zaro qarama – qarshiligida deb baholaydi. AQSh xavfsizlikni ta'minlashdagi asosiy vazifa uning fikricha, dunyoda o'z harbiy salohiyatini o'stirish va yadro urushiga tayyorgarlik ko'rishdir<sup>2</sup>. Biroq vaqt o'tishi bilan aniqrog'i, Afg'oniston va Iroqdagi harbiy harakatlardan so'ng, siyosiy realistlar ta'limotida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Natijada aksariyat realistlar xavfsizlikni ta'minlashda harbiy kuch omilidan foydalanish kuzatilgan natijalarni bermaganligi e'tirof etilmoqda, ular milliy maqsadlarga erishishda harbiy kuch o'rniga siyosiy, iqtisodiy, axborot vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidlamodalar. Shu tariqa, ular tomonidan davlatlarning milliy manfaatlari nafaqat hokimiyat uchun kurashning kuchayishiga, boshqa davlatlar ustidan hukmronlik qilishga, balki dunyo xavfsizligini ta'minlashga olib kelishi mumkin degan fikrlar bildirilmoqda. Mazkur holat esa keyingi o'n yilliklar ichida siyosiy realizm ta'limoti ham o'zining evolutsion bosqichini o'tayotganligidan dalolat beradi.

“Hozirgi davrda Rossiya olimlari tomonidan milliy va xalqaro xavfsizlik borasida traditsion yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlanmoqda”, deb qayd etadi rus olimi A. Bozjennikov<sup>1</sup>. Bu holat esa asosan quyidagi omillar bilan bevosita bog'liq:

- SSSR va Varshava ittifoqi shartnomasining parchalanishi oqibatida Sharq va G'arb munosabatlaridagi yangicha tartibda vujudga kelishi;

<sup>1</sup> Mazkur g'oya 1648-yilda qabul qilingan vestfal tinchlik sulhi va yangi asrning boshlarida siyosiy nazariyaga kirib kela boshladi. –B.76

<sup>2</sup> Gray c. the geopolitics of super power. Lexington. The University of Kentucky Press. 1988 –P.117.

- Xavfsizlikni ta'minlashda tinchlik vositalarining roli va ahamiyatini ortib borishi;

- Davlatlarda hukm surgan beqarorlik natijasida "islom" omilining xavfsizlikka bo'lgan ta'sirini o'sib borishi.

Keltirilgan omillar siyosiy realizm nazariyasining asosiy yo'nalishlariga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatadi.

Sobiq SSSR hududi va Rossiyada uzoq yillar davomida milliy va xalqaro xavfsizlik yuzasidan marksizm ta'limoti hukm surib kelgan. Bu ta'limot liberalizm, siyosiy realizm va xalqaro jamiyat ta'limoti nazariyasidan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Unda xavfsizlikning asosiy omillari sinfiy solidarlik (birdamlik, hamfikrlik) va boshqa jamiyat tizimidagi davlatlar bilan qarama-qarshilik jarayonlari bilan bog'lanadi<sup>1</sup>. I. Stalin davrida davlatning tashqi va ichki siyosati konservativ fikrlash xususiyatiga ega bo'lib, xavfsizlikni ta'minlashda davlatning roli haddan tashqari yuqori darajaga ko'tarilgan va harbiy kuch omilidan foydalanish asosiy vosita sifatida ko'tarilgan. Shu tariqa, davlatlararo aloqalarda tanglik vaziyati, "sovuq urush" jarayonlari kechgan. Yadroviy qarama-qarshilik strategiyaning falsafasi N. Xrushchev va L. Brejnev zamonida ham uzoq vaqtlargacha xavfsizlikni ta'minlashda kuch omiliga asosiy urg'u berib kelgan. O'sha davrlarda bir qutb harbiy salohiyatning o'sib borishi ikkinchisiga katta tahdid hisoblangan va ikkinchi tomon ham o'z mudofaa xavfsizligini ta'minlashga intilgan. Harbiy kuch muvozanatini tiklash maqsadida o'zining yadroviy salohiyatini rivojlantirishga harakat qilgan. Mazkur harbiy raqobat natijasida dunyoning siyosiy maydoni qurollanish poygasiga aylangan. Albatta, bu bilan birga, yadroviy urush tahdidining darajasi ham ortib brogan. Bu esa bugungi xalqaro munosabatlarda shakllanayotgan yangi jahon tartibotining asosiy shartlaridan biridir.

"Sovuq urush"ning tugashidan so'ng xalqaro munosabatlardagi vaziyatni o'zgartirish bo'yicha qator olimlar o'zlarining qarashlarini bayon etganlar. Masalan, amerikalik mashhur olim Frensis Fukuyama, sobiq ittifoqni parchalanishi

---

<sup>1</sup> Возжеников А. Национальная безопасность: теория, практика, стратегия.–М.: Модуль,2000. –С.14

g'oyaviy qarama-qarshiliklarni tugashiga hamda liberal demokratik tamoyillarni kommunizm ustidan g'alaba qozonishiga olib kelgan fikrni 1990- yillarning boshidayoq e'tirof etadi. U vaziyatni kelajakdagi rivojiga bashorat berar ekan, xalqaro munosabatlarda nisbatan barqarorlik hukmron surishini, davlatlar o'rtasida hamkorlikka bo'lgan intilishni kuchaytiruvchi hamda xalqaro munosabatlarni "bozor demokratiyasi" asosida tashkil etilishi borasida fikrlar bayon etgan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan uning optimistik bashoratlari oqlanmadi. Dunyoda ko'plab muammolar yuzaga kela boshladi. Bu muammolarni bartaraf etishda esa davlatlar tashqi siyosatidagi katta farqlar xalqaro munosabatlar tizimida o'ta murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi.

F. Fukuyamaning mazkur qarashlariga mutloq o'zga fikrni yoqlab chiqqan olim S. Xantingtondir<sup>1</sup>. 1993 yilda olim tomonidan chop etilgan "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nomli asarida "sovuq urush" davridagi g'oyaviy nizolar o'rniga madaniyatlar o'rtasidagi nizolarni kelib chiqishi e'tirof etiladi. Samuel Xantington "dunyoning uch qarama-qarshi turuvchi madaniy-diniy sivilizatsiya" modelini taklif qiladi. Bular: Xitoy, Yaponiya, Hind (Budda) sivilizatsiyasi, islom (musulmon davri) sivilizatsiyasi va Xristian-provaslav (lotin Amerikasi, balki Afrika ham) sivilizatsiyasi. Bu modelga ko'ra, hozirgi zamon globallashuv siyosati ko'p qutblilik, ko'p sivilizatsiyalilik xususiyatlarga ega bo'lib, u madaniy sivilizatsiyaviy bloklarning to'qnashuviga, iqtisodiy va texnologik yangilanish esa sivilizatsiyaviy yoki diniy o'zlikni saqlash borasidagi to'qnashuvlarga olib keladi. Bu yangi qonuniyatlarning kelib chiqishi bilan izohlanadi. Chunki bu ziddiyatlar etnomilliy rangda va musulmon hamda xristian dinni o'zligini saqlash asosida tug'ilmoqda. Shu sababli islom siyosiy ekstrimizmning tahdidi ortib bormoqda. Uning fikricha, istiqbolda xavfsizlikning asosiy tahdidlari janub-shimol, boy va kambag'al, kapitalizm va kommunizm davlatlari o'rtasida emas, balki sivilizatsiyalar o'rtasida kelib chiqishi uqtiriladi. Buning quyidagi sabablari ko'rsatiladi:

---

<sup>1</sup> Хартингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис. -1994. -№1. -с34.

1. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi farqlarni mavjudligi va ular orasidagi qarama-qarshilikni kuchayishi;
2. Dunyoning o'zaro tobeligi;
3. Iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy rivojlanishning turli xilligi oqibatida davlat rolini pasayishi hamda bu jarayonda dinlarning ta'sirini kuchayishi;
4. Iqtisodiy va siyosiy xususiyatlardan ko'ra madaniy xususiyatlar kuchliroq va mustahkamliligi;
5. Globalizatsiya va integratsiya jarayonlarining kuchayishi.

AQSh siyosatshunoslarining fikricha, o'tish davri davlatlarni dunyoda yagona kuchli davlatning bo'lishini inkor etuvchi davlatlar o'z manfaatlari nuqtai nazaridan qiziqish bilan qarashmoqda. Bunday davlatlar qatoriga Eron, Iroq, Liviya, KXDR kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, dunyo global siyosatida "omadsiz" davlatlar guruhi borligi ta'kidlanmoqda. Bunday davlatlar hatto o'z mamlakatida ichki tartib ham o'rnata olmaydi va fuqarolarning ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bunday davlatlarga Somali, Ruanda, Jazoir, Sorra-Leon kabilarni kiritish mumkin.

Yangi tartibotning paydo bo'lishida turli xarakterdagi mintaqaviy jarayonlarning davlatlarning iqtisodiy-xalqaro aloqalariga ta'sir ko'rsatayotganligi, yangi "geoiqtisodiyot" omilining kengayib borayotgan muhim o'rin tutmoqda. Davlatlarning birlashuvining o'sishi va xususiy biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hissasining ortishi dunyo iqtisodiyotiga "noharbiy vositalari" ning kirib kelishiga imkon yaratmoqda. Yangi xorijga kapital qo'yish, dunyo bozorida tovar va xizmatlar operatsiyalarini o'tkazish, ilmiy tadqiqotlardagi hamkorlik kabilar shular jumlasidandir. Dunyo hamjamiyati yangi tartibga ketayotganining bir nechta kuchli omillarini belgilab ko'rsatish mumkin. Bular: qudratli harbiy kuch; Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyo davlatlaridagi kuchli iqtisodiy rivojlanishi; davlatlarning trasmilliy korporatsiyadagi ta'sirining kamayishi va nodavlat tashkilotlar rolining oshishi; davlatlar va xalqlarning

o'zligini saqlab qolishga intilishi; boy va kambag'al davlatlar o'rtasidagi tafovufning kuchayishi; demografik o'zgarishlar.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar hozirgi xalqaro munosabatlar holatiga, yangi shakllanayotgan jahon tartibotni rivojiga baho bergan holda, asosan ikki yo'nalishda namoyon bo'lmoqda.

1) Birinchi yo'nalish optimistik, ya'ni xalqaro munosabatlardagi vaziyatni barqarorlashishi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchli ta'kidlanishi hamda xalqaro hamkorlikni kuchayishi xususidagi qarashlar.

2) Ikkinchisi pessimistik yo'nalish. Bunda xalqaro munosabatlardagi vaziyat o'tish davri sifatida baholanib, bu jarayonda davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni kuchayishi, ular orasidagi tafovutni ortishi natijasida ko'plab muammolarni yuzaga kelishi alohida ta'kidlanadi.

Xalqaro munosabatlar Fransiya institutining direktori T. Monterial fikricha, yangi jahon tartibotini shakllanishi "uchlik" prizmasi (globallashuv, fuqarolik jamiyati kengayishi, adolatli hokimiyat) orqali vujudga keladi. Biroq ba'zi bir tadqiqotchilar globallashuv, xususan demokratiyaning globallashuvi va fuqarolik jamiyatini kengayishi istiqbollariga erishish o'ta qiyin jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, I. Ramone fikricha, global dunyo tartibi kelajakda birlashtirilmaydi, aksincha u G'arbiy Yevropa va AQShni rolini jahon siyosatidagi roli va ahamiyatini oshishiga, davlatlar o'rtasidagi o'zaro farqlarni ortishiga xizmat qiladi. Chunki ularning manfaati tobora farqlanmoqda. Yevropaliklar fikricha, bu jarayon inson huquqlari va liberal qadr-qimmatlar kengayishi bilan bog'liq. Bu jarayonda AQSh dunyoda o'zini yagona yetakchiligini ta'minlash uchun harakat qilayotganligi alohida ta'kidlanadi. E. Sheller yangi dunyo tartiboti jarayonida yarim davlatlar kattaroq ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Mazkur jarayonda AQSh iqtisodiy, harbiy, madaniy kuchga ega bo'lib, o'z ustuvorligini saqlashga harakat qilishi alohida ta'kidlanadi. Xususan, AQSh tomonidan "elektron era" qoidalarini faqat o'ziga foydali qilib o'rnatilishi, bu maqsadda internet avvalambor, Amerika savdo ekspansiyasi vositasi sifatida ishlatishi e'tirof etiladi. Ammo abadiy bo'lishi mumkin emasligini hamda bu omil Yevropa va Janubning ayrim

davlatlarining norizoligiga olib kelishi aytib o'tiladi. Aksariyat tadqiqodchilar fikricha, AQShni so'zsiz iqtisodiy, texnologik, harbiy, information, madaniy kuchiga, uning demokratik imijiga qaramasdan, uning xalqaro sahnada yakka yetakchiligini mumkin emas, chunki AQSh ulkan boyliklar, resurslarga ega bo'lishiga qaramasdan, ular ham chegaralangan.

Shunday qilib, yangi jahon tartibotiga adabiyotdagi mavjud bo'lgan nuqtai nazarlar turli xil. Tadqiqodchilarning ko'pchiligi xalqaro munosabatlarni zamonaviy holatini o'rganganda davlat ahamiyatining kamayganligini, ishlab chiqarish, moliyaviy, information, kommunikatsion va boshqa oqimlari mavjud bo'lgan transmilliy korxonalarining jahon iqtisodiyotidagi roli va ahamiyatini o'sganligini qayd etishmoqda.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalari o'z traditsion yondashuvlarini yo'qotib bormoqda va evolutsion davrni boshdan kechirmoqda. Ular borgan sari individual milliy xavfsizlikka asoslanmoqda. Mazkur sharoitda nafaqat milliy xavfsizlik, shuningdek, milliy manfaatlar ham ba'zi bir o'zgartirishlarga muhtoj bo'lib qoldi. Bugungi kunda milliy manfaatlar nafaqat davlat yoki uning ittifoqchilari shaxsiy manfaatlarini, balki butun dunyo hamjamiyatining manfaatlarini o'z ichida qamrab olishi zarurligi ma'lum bo'ldi. Bular, bizning fikrimizcha, quyidagilarda aks etmoqda:

- Milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini anglab yetish;

- Harbiy yo'l bilan muammolarni hal qilish samarali natijalar va ko'zlangan maqsadlarni bermasligi haqidagi fikrlarning ko'payishi;

- Milliy xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga insonning asosiy huquqlari, ehtiyojlari va erkinliklarini qamrab olishini tobora ko'p ta'kidlanishi;

- Milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimida xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalarning ahamiyatining ortishi.

Xavfsizlik masalalari yuzasidan shakllangan maktablar va ulardagi asosiy qarashlarni tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Xavfsizlik masalasi yuzasidan bildirilgan fikr va qarashlar o'rtasida o'ziga xos umumiylik hamda fikrlar mavjudligi aniqlandi. Ularning ba'zilar xavfsizlikni ta'minlashda shaxs omiliga katta e'tibor qaratgan bo'lsa, ba'zilar davlatni oiliy qadriyat sifatida, boshqalarida esa davlatlarni rolini pasaytorishga, xalqaro hamjamiyat va xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini ko'tarishga harakat qilmoqda. Ular orasidagi umumiylik esa xavfsizlikni dolzarbligini e'tirof etishda hamda uni ta'minlashda harbiy kuch omiliga bo'lgan yondashuvni o'rganishda aks etmoqda;

- Zamonaviy xalqaro munosabatlarda shakllanayotgan yangi xavfsizlik tizimi nafaqat harbiy, balki insonning erkinlik, tenglik, va adolatga bo'lgan qonuniy intilishlarni ta'minlovchi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarni ham o'z ichiga qamrab olishi zarurligi ma'lum bo'ldi;

- Bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta'minlashda davlat va jamiyatning asosiy oiliy qadriyati bo'lmish shaxsga bo'lgan e'tiborni ortib borishi kuzatilmoqda;

- Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda integratsion jarayonlarni rivojlantirish, milliy manfaatlar uyg'unligiga erishish hamda xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini oshirish barcha davlatlarning milliy manfaatlariga mos kelishi e'tirof etilmoqda;

- Bunda davlatlar yangi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda hamda milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini to'la his etgan holda, o'z milliy manfaatlarini belgilashda dunyo hamjamiyatlarini hisobga olishlari zarur. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xavfsizlik keng qamrovli tushuncha bo'lib, o'zining mantiqiy mohiyatini aniq obektlar yoki inson faoliyati doirasi bilan bo'lgan muloqotda aks ettiradi.

## **2-BOB. MUSTAQILLIK SHAROITIDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIK VA UNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

### **2.1 Xavfsizlik tizimida mafkuraviy xavfsizlik**

Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ustuvor hisoblangan. XX asrning oxiri XXI asr boshida jahonda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, o'zgarishlar natijasida bir qator chegara bilmaydigan muammolar yuzaga keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, odam savdosi, narkobiznes, terrorizm, ma'naviy qashshoqlik, mafkuraviy tahdidlar shular jumlasidandir.

Ayniqsa globallashuv sharoitida ba'zi davlatlar tomonidan dunyoda hukmronlik o'rnatish maqsadiga qaratilgan jiddiy harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa xalqaro maydonda bu borada mafkuraviy kurashlar avj olmoqda. Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va axborot kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda bu xurujlar avvalo yoshlar ma'naviy dunyosiga mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali ularning qalbi va ongini egallashdek har xil g'arazli maqsadlarga qaratilgan.

Bu borada Prezident I.A.Karimov shunday deydi: "Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar"<sup>1</sup>.

Dunyoni manfaat boshqaradi, degan gap bor. Shu nuqtai nazardan, globallashuv jarayonlarining asos-mohiyatini foyda va daromad tashkil etgan kapitalistik munosabatlarning takomillashuvisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'z manfaatlarini qondirishda dunyoda "demokratik tamoyillar" asosida g'arblashtirish siyosati olib borilmoqda, insonlar ongiga milliy tafakkur, milliy qadriyatlarga yot g'oyalarni singdirishga harakat qilinmoqda. Ayniqsa chet eldagi ba'zi siyosatchi va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.- Ma'naviyat. 2008 –B.66.

arboblar mafkura masalasida XX asrning oxirlarida mustaqillikka erishgan davlatlar xalqlari ongiga azaliy hayot tarzi va ruhiy dunyoga yot bolgan qarashlar va madaniyatni majburan joriy etishga urinmoqdalar.

Mafkuraviy kurashlar haqida Prezident I.A.Karimov o'zining asarlarida, yig'ilishlaridagi ma'ruzalarida hamda jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvlarida bir necha bor to'xtalib o'z fikrlarini bildirgan, jumladan, uning Rossiyaning "Независимая газета" si muxbiri bilan bo'lgan suhbatida quyidagilarni bildirgan edi: "sir emas, bizda faoliyat ko'satayotgan xalqaro tashkilotlar har doim ham oliyjanob niyatlarni ko'zlayvermaydilar. Aytaylik, "XXI asr liderlari" kabi mavzularda o'tkazilayotgan semenarda ular iqtidorli yoshlarni "tanlashda hokimiyatga yordam" beradi, biroq bunda ular eng avvalo, o'z manfaatlarini ko'zlashadi. So'ngra, chet elga muntazam safarlar yurutiladi, ularda turli simpozium va seminarlar davomida yoshlarning ongiga g'oyat ustalik bilan ta'sir o'tkazadi. Shu tariqa o'zlarini "dunyo fuqarolari" deb ataydigan kishilar toifasi tayyorlanadi... Bu hozirgi voqeligimizda "oddiy odamlar sari o'n qadam", deb ataladi... Keyinchalik ana shu go'zal ibora paydo bo'lgan mamlakatning uch nafar fuqarosi Toshkentda portlashlar uyushtiradi"<sup>1</sup>.

Bunday tashkilotlar qatoriga kirgan "Soros" tashkiloti "demokratiyadan ta'lim berish" bahonasida bir qator mamlakatlarda olib borgan faoliyati, Ukraina, Gruziya, Qirg'izistondagi "baxmal" yoki "rangli" inqiloblarni moliyalashtirgan va ularni tashkil etganliklari buning yorqin misolidir, yoki "ilg'or ta'lim tizimi" ni joriy etish maqsadida, bizga yot bo'lgan g'oya va aqidalarni yoshlarning ongiga singdirishga harakat qilgan "turk inqilobchilari" faoliyati va uning oqibatlarini ham ko'pchilikka ma'lum bo'ldi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet tarmog'i so'zsiz ilg'or va kerakli bo'lgan masofali ta'lim tizimini joriy etishga imkon yaratdi. Ammo bundan ko'p mamlakatlarda faoliyati to'xtatilmagan "soros" kabi tashkilotlar chegara bilmas

<sup>1</sup> Karimov I.A. Buz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston, 2007. –B.15-34.

internet tarmoqlari orqali buzg'unchilik ishlar, mafkuraviy xurujlarni olib borib o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida ishlarni davom ettirmoqda.

Madaniyat inson ongi va qalbiga ta'sir o'tkazishning eng ta'sirchan vositasidir. Shuning uchun ham ayni madaniyat, san'at orqali yoshlarga ta'sir o'tkazishga asosiy diqqat e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda yoshlarda Amerika madaniyatiga taqlid qilishga intilish hollari uchramoqda.

Mafkuraviy kurashlar avvalambor bu biz uchun ahloqiy jihatdan noma'qul, milliy qadriyat, an'ana, urf-odat va milliy qarashlarga yot bo'lgan g'oyalarni tarqalishini oldini olmoqda, lekin biz hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko'rinishlarni bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz va ayni shu asosida insonlar ongiga singdirishdan iborat bo'lib, afsuski bu ishlar va harakatlar olib bunday xurujlarning o'ta xavfli ekanini anglashimiz lozim.

Hozirgi davrda g'arb madaniyatining yoshlar ongiga osonlik bilan kirib kelishi va uning jozibadorligi ayon bo'lib kelmoqda. Bunda internetning o'zni kuchaymoqda, u o'z navbatida virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko'rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Virtual voqelik va kibermadaniyat kishilarning fe'l-atvorini osonlikcha dasturlashtirish imkoniyatini berayapti, ya'ni yoshlar ongi va qalbini yot g'oyalar egallashda eng oson harakatga aylandi.

Amerikalik siyosatshunos olim Z. Bjezinskiy bu borada shunday deydi: "Madaniy ustunlik Amerika global kuch qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlari haqida nimalarni o'ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi, ehtimol, shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir"<sup>1</sup>.

Butun dunyoni qamrab olgan va jo'shqinlik bilan kechayotgan bir paytda madaniy inqilob sifatida talqin etish mumkin bolgan bu jarayonlar teskari harakatlarni yuzaga keltiradi, ya'ni dunyoga demokratik boshqaruv tamoyillarni yoyish ostida davlatlarning dunyoda hukmronlikni o'rnatish maqsadida

g'arblashtirish (Yevrosentrizm) va g'arb madaniyatini insonlar ongiga singdirish borasidagi mafkuraviy kurashlar avj olmoqda.

Hozirgi davrda mafkuraviy kurash avj olayotgan bir paytda axborot vositalaridan keng foydalanish imkoniyatlari ochilmoqda. Axborot asrida axborotlashtirish jarayonining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatlarda foydalanish xavfi ham tug'ilmoqda. Bunda axborotdan jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning suveren tengligini tamoyillariga amal qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlardan zid ravishda foydalanmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari birmuncha yuksalgan davlatlar bunday ustunlikdan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy ekspansiyani amalga oshirish maqsadida foydalanmoqda. Boshqa so'z bilan aytganda hozirgi globallashuv sharoitida axborot jahonda yetakchilik qilish uchun kurashdagi asosiy qurolga aylangan, chunki axborot texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi davlatning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi voqelik bu hodisani "axborot neoklonializmi"<sup>1</sup>, "axborot urushlari"<sup>2</sup>, "axborot fashizmi"<sup>3</sup> deb nomlanayotgan olimlarning gapida jon borligini ko'rsatmoqda.

Axborot urushi birinchidan, harbiy qo'shinlarni saqlashda kam xarajat bo'lib qurol – yaroq sotib olishni talab qilmaydi. AQShning sobiq Presidenti J. Karter ham "Targ'ibotga sarflangan 1 dollar qurollanishga sarflangan 10 dollardan samaraliroq", deb ta'kidlagan edi. Ikkinchidan, axborot urushi hech qanday chegaralarni tan olmaydi, ya'ni internet, sun'iy yo'ldosh orqali aloqa, ommaviy axborot vositalari hukmronlik qilayotgan bugungi dunyoda axborotni bojxona ko'rigidan o'tkazib, yaxshi yoki yomonini, foydali yoki foydasizligini ajratishning

<sup>1</sup> Бжезинский З. "Великая шахматная доска. Господство Америки и геостратегические императивы", М., 1998. –С.38.

<sup>2</sup> Qarang: Saidov U., "Globallashuv va madaniyatlararo muloqot" T.,-"Akademiya". 2008.55-bet. :A.V. Manoqlo, A.I.Petrenko,D.B.Frolov Государственная инф-я политика в условиях инф-го психологической войны. М., - Горячая линия – Телеком,2003. –с.67-69.

<sup>3</sup> Qarang: Saidov U., Globallashuv va madaniyatlararo muloqot T.,-"Akademiya".2008.55-bet. :Г.Г.Почепцов. Психологической войны. М.,-Релф – бук. 2000. –С.57-63.

iloji yo'q. Ammo, bu urush raqibni jismoniy yo'q qilish emas, uni o'ziga ma'nan bo'ysundirish maqsad qilinganligi tashvishli holdir<sup>1</sup>.

Shunday ekan axborot makonining globallashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi ijtimoiy – siyosiy ahamiyat kasb etadi. Axborot urushi biz bilgan urushlardan qator jihatlari bilan ajralib turadi, bu insonlar ongiga ta'sir o'tkazishning eng qulay yo'lidir. Aslida bunday xavf – xatar mavjudligi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov ancha avval ogoh etib, o'zining “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati” asarida buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagani, ayniqsa uning dunyo xaritasida paydo bo'lgan yangi davlatlar mustaqilligiga tahdidi to'g'risida ogohlantirilgan edi. Bu bilan: “O'zbekiston Respublikasi ham ana shu hodisa ta'siridan chetda qolgani yo'q. O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarida, bildirayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti – harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda... Tarixiy tajribalarga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda ularga intilish deb ta'riflash mumkin”<sup>2</sup>. – deb ta'kidlagan edi. Globallashuv sharoitida rivojlangan mamlakatlar sanoat mahsulotlar, axborot va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositalari orqali keng ko'lamdagi geosiyosat yuritish bilangina cheklanmay, o'z xalqining tabiati, madaniyati, mafkurasiga xos jihatlarni muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, odamlarning ongu shurriga, izchil singdirishga intilmoqda. Bu hol, ayniqsa, endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlar xalqlarining milliy o'zligi, madaniyatining vorisiylik an'analari hamda milliy mentalitetiga putur yetkazishdan darak bermoqda. Globallashuv jarayonidagi mafkuraviy

<sup>1</sup> Qarang: Saidov. U., Globallashuv va madaniyatlararo muloqot T., “Akademiya”.2008.55-bet. :Гигабайт власти. Инф-ные тех-гии между своб. И тоталитаризмом. М.,-Бестелер”.2004. –с.143-149.

<sup>2</sup> Karimov I.A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T., Ozbekiston.1997. –B.46-47.

kurashlarning yana bir ko'rinishi yot bo'lgan g'oyalarni madaniyat orqali xalqlar ongiga singdirib, madaniyat sohasida Yevropa yoki Amerika madaniy andazalari negizida madaniyatning bir xillashuviga harakat qilish, bu bilan turli xalqlar madaniyati va qadriyatlariga asoslangan tamadduniy tafovutlar tufayli ba'zi xalqlar tili qolaversa kichik xalqlar va davlatlarning yo'q bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ba'zi yetakchi davlatlar tomonidan xalqlar, ayniqsa yoshlar ongiga yot mafkura va g'oyalarni singdirishda madaniyat va san'at sohaslarida o'zlarining pinhona ishlarini keng avj oldirmoqdalar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "... ba'zan beozor bo'lib tuyilgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi"<sup>1</sup>.

Shunday qilib, hozirgi zamon globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlar dunyoda hukmronlikni qo'lga olishda niqob ostidagi g'arbning demokratik boshqaruv tamoillarini boshqa mamlakatlar ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta'sir qilish orqali o'z maqsadlarini amalga oshirmoqdalar, bu borada hozirgi jarayonda mafkuraviy kurash va tahdidlarni olib boorish qo'l kelmoqda. Hammamizga ma'lumki insoniyat tarixida mafkuradan, buyuk maqsadlardan mahrum etilgan jamiyat kelajakda o'z yo'lini yo'qotadi. Shu o'rinda kuchli taraqqiy etgan mamlakatlarning mafkuraviy kurashlari ostida manfaatlarni qondirish va dunyo bozorida hukmronlikni qo'lga olish maqsadida avvalambor yoshlar qalbini egallashdagi axborot xurujlari bunda birinchi navbatda Internet aloqalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, madaniyat, sohalari orqali tahdidlarni amalga oshirib bormoqdalar.

Bu dunyodagi zo'ravon va tajavvuzkor kuchlar ma'lum xalq yoki davlatni o'ziga tobe qilish, ularning boyliklarini egallash, ularni ma'nan qul qilib, eng buyuk boylik bo'lmish milliy qadriyat, ma'naviyat va tarixdan judo qilishni o'zlariga maqsad qilib olganlar. Hozirgi kunda esa bu masalalarga qarata har bir davlat o'zining siyosatini amalga oshirib kelishi, qolaversa globallashuv

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni millat etishga hizmat etsin, T., -Ma'naviyat. 1998 –B.6.

jarayonlaridan voqif bo'lib uning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olishi hamda bu borada aniq vazifalarni belgilab, o'zining aniq maqsadlariga erishish yo'lidagi chora – tadbirlarini belgilab olishi zarur. O'zbekistonda ushbu xavf-xatarlarning oldini olishning o'z yo'lini va maqsadlari aniq belgilab olingan.

Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va mafkuraviy xavfsizlik masalalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga keldik.

- Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf - xatar majmusi;

- Mafkuraviy xavfsizlik – shaxs millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan himoyalanganlik darajasi.

Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda ichki va tashqi tahdidlar mavjud.

- O'zbekistonda huquqiy demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishga to'sqinlik qilish uchun g'arazli niyatlariga erishishda mamlakatimiz fuqarolaridan “Qurol” sifatida foydalanishiga intilish, qolaversa qo'shni davlatlardagi siyosiy beqarorlik ham mamlakatimizdagi mafkuraviy xavfsizligiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

## **2.2. Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar va ularning zararli oqibatlari**

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ixotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishiga intilgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globalashuv deb atalayotgan bunday jarayonning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari, siyosati qanday ekanligi bilan ham bog'liq.

Globalizatsiya – turli jamiyatlar o‘rtasidagi bir-biriga o‘zaro bog‘liqlikni ortishiga ta’sir etayotgan jarayon bo‘lib, uning natijasida yer kurrasining bir burchagida yuz berayotgan hodisalar dunyoning boshqa nuqtalarida yashovchi xalqlar hayotiga ta’sir etadi. Globallashgan dunyoda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy voqealar bir-biriga bog‘liq tarzda rivojlanib boradi. Internetning jadal rivojlanishi, televizion axborot vositalarning ilg‘orlab ketishi, transnasional korporatsiyalarning faoliyatining yanada kengayishi va boshqalar globalizatsiya jarayonini yanada kuchaytiradi. Hozirgi kunda dunyo borgan sari kichrayib, yangicha shakl va mohiyat kasb etayotganga o‘xshaydi. Globalizatsiyani, aslida, oxirgi yigirma-o‘ttiz yilda dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifoda etuvchi tushuncha deb qarash mumkin. Globalizatsiya shunday bir jarayonki, uning natijasida kishilar va xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar masofaa va chegara bilmasdan rivojlanadi va jahon yagona bir ijtimoiy makonga aylanib boradi. Bu pallada ijtimoiy munosabatlar, ya’ni insonlarning o‘zaro munosabatga kirishlarining turli shakllari, «yagona dunyo» kontekstida amalga oshadi. Masofaa va eng muhimi, davlatlar o‘rtasidagi chegaralar borgan sari o‘z ahamiyatini yo‘qotib boradi.

Globallashuv – bu turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Globallashuv mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma’naviyatiga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mafkuraviy tahdid – bu ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga tiqishtirishdir<sup>1</sup>. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi. Prezident Karimov I.A. ta’kidlaganidek, dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va

turmush tarzi ishdan chiqayotgani, ahloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin<sup>1</sup>.

Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy manzarasini o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari mavjudki, bular bizning tinchlik va barqarorligimizga, taraqqiyotimizga jiddiy tahdid solmoqda. Mavjud mafkuraviy tahdidlarning asosiy shakllari va yo'nalishlari doirasida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov qator asarlarida to'xtalib o'tgan. Tajavuzkor millatchilik va shovinizm, kommunizm, diniy ekstrimizm va fundamintalizm, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi mafkuraviy tahdidlar shular jumlasidandir.

Biz BMI da "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi mafkuraviy tahdid va bu tahdidning odamlarga, ayniqsa yoshlarimiz ongi va madaniyatiga, qolaversa, barqarorlik va taraqqiyotga qay darajada xavf solayotganligi borasida to'xtalishni lozim topdik.

"Ommaviy madaniyat" madaniy globallashuvning, madaniy ekspansiyaning, qolaversa mafkuraviy ta'ziqning eng xavfli ko'rinishlaridan biridir. Eng avvalo "ommaviy madaniyat" ning mazmun-mohiyati va xavfli jihatlari to'g'risida to'xtalish lozim. Ommaviy madaniyat olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Ularni umumlashgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Ommaviy madaniyat – xalq madaniyati, urf odatlari, marosimlari, san'ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha.
2. Ommaviy madaniyat OAVning rivoji bilan bog'liq hodisa.
3. Ommaviy ishlab chiqarish, "ko'ngil ochish industriyasi" tomonidan yaratilgan, omma iste'moliga mo'ljallangan madaniyatning sayqallashtirilgan namunalari ko'rinishidagi salbiy hodisa<sup>2</sup>.

Hozirda globallashuv bilan bog'liq ommaviy madaniyat salbiy hodisa, kontrmadaniyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, P. Byukenenning quyidagi fikri diqqatni jalb etadi: "Amerika mafkuralashgan davlatga, o'z yangi

<sup>1</sup> Ma'naviyat.: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.-T.: 2010. – B.297.

<sup>2</sup> Saidov U. globallashuv va madaniyatlararo muloqot. – T.2008. –B.75.

aqidalarini armiya va politsiya orqali emas, ommaviy madaniyat inkvizitorlari yordamida jahonga singdirayotgan “yumshoq tiraniya” ga aylangan”.

“Bugungi kunda OAV, televidiniya madaniyatni “olomonlashtirishning asosiy vositasi va manbai bo’lib xizmat qilmoqda”<sup>1</sup>. Bu, avvalo, odamlarning haqiqatda dardi bo’lgan, qayg’u va xursandchiligini ifodalagan, ularni qiziqtirgan har qanday muammoni tovarga, bir qolipga solingan ko’gilhushlikka aylantirilishida namoyon bo’ladi.

“Ommaviy madaniyat” orqali qadriyatlar tizimini tubdan o’zgartirishga harakat qilinmoqda va ushbu madaniyat “qoliplari” qayerda ishlab chiqarilayotganidan kelib chiqib, aytish mumkinki, bu o’zgarish, avvalo, g’arbona individualism tomon bormoqda. Buning xavfli tomonlarini taniqli ingliz sotsiologi Z. Bauman quyidagicha ifodalaydi: “Individuallashtirish jamiyatga uch xarakterli xususiyat xos: inson tomonidan ijtimoiy jarayonlar ustidan nazoratning yo’qolishi; kishining jamiyatdagi o’zgarishlar qarshisidagi, ularni nazorat qilish imkoniyati yo’qligi tufayli, himoyasizligi va o’zi ayashi kerak bo’lgan mavhum, noaniq voqelik qarshisidagi himoyasizligi; bularning oqibati o’laroq, insonning uzoq muddatli maqsadlarni, hayotiy strategiyalarni rejalashtirib, ro’yobga chiqara olmagan tufayli, ular unchalik salmoqqa ega bo’lmasa-da, darhol qo’lga kiritiladigan natijalar bilan almashtirishi”<sup>1</sup>. Z. Bauman salbiy jihatlarni o’zida mujassam etgan individning paydo bo’lganligini qayd etadi, chunki u individning paydo bo’lganligini qayd etadi, chunki u ijtimoiy muhitdan, jamoadan ajralib qolgan, o’zgalar haqida o’ylash qobiliyatidan javobgarlik va yakdillik to’g’risidagi mahrum bo’lgan hamda faqat qisqa muddatli vazifalarni oldiga qo’yib, bugungi kun bilan yashaydigan kishiga aylangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, “ommaviy madaniyat” kishiga insonlik, shaxs martabasini beradigan milliy madaniyatidan, ma’naviyatidan, tarixiy xotiradan mahrum etadi. Rus olimi V.G.Fedotova ta’biri bilan aytganda, u “ildizsiz individ” larni shakllantiradi, OAV

---

<sup>1</sup> Федотова В.Г. Факторы ценностных изменений на Западе и в России // Вопросы философии, 2005.№ 11. – С.12

yordamida esa “ildizsiz”, zaminidan mahrum etilgan individlar ommasi paydo bo’ladi. Jamiyat anomiya (tartib-qoida va qadriyatlarni yo’qotish) holatiga tushadi.

S.Naumov anomiyaga “individlarni jamiyatdan begonalashuviga olib boradigan tizim (jamiyat) ning normative-funksional talablari bilan individlarning real hatti – harakatlari o’rtasidagi bog’lanishning buzilishi”, - deya ta’rif beradi va buning oqibatini quyidagicha ifodalaydi: “Jamiyat individlar xatti-harakatlarini ilgari odatiy institutsional doiraga yo’naltira olmay qoladi. Hayotini tartibga soluvchi va faoliyatini yo’naltiruvchi qadriyatlar tizimidan mahrum bo’lgan odamlar yo o’ta asabiy holatga yoki chuqur tushkunlik holatiga tushadi. Ular o’zlarini xavf ostiga qo’yib, tavakkal ish ko’radi, daqiqaviy manfaatlarni qo’llaydi, bu bilan ijtimoiy tizimning tarkibiy elementlarini saqlash va qayta yaratish jarayonida ishtirok etmay qoladi. Jamiyat tarqoq holga kela boshlaydi, chunki ilgari mustahkam bo’lgan ijtimoiy aloqa va munosabatlar qayta tiklanmaydi”<sup>1</sup>. Y.Karagod ham shunga o’xshash fikrlarni ilgari suradi: “Globallashuv alohida olingan inson hayotining yanada atomlashishiga olib keladi”<sup>2</sup>.

Shunday qilib, globallashuv jarayonlari va uning yo’nalishlaridan biri bo’lgan ommaviy madaniyat ekspansiyasi ta’sirida sodir bo’ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o’zgarishlar “ijtimoiy mavjudod” bo’lgan insondagi o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Buning xavotirli jihati shundaki, inson va jamiyat ma’naviy-ahloqiy tayanchlaridan mahrum bo’ladi, jamiyat inqirozga uchray boshlaydi.

Globallashuv tufayli yoshlarimiz ongiga ta’sir etayotgan “ommaviy madaniyat” ommaviy axborot vositalari orqali O’zbekistonga ham kirib kelmoqda. U sirdan terrorism va ekstrimizm kabi xavfli hodisa bo’lib ko’rinmaydi, ammo mohiyati milliy madaniyatga, kishilarimizning, ayniqsa yoshlarimiz ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Masalan, internetni olaylik, “Internet ommaviy axborot vositalari hisoblansada, u tarqatayotgan xabarlar, reklamalar, kliplar, yirik axborot markazlari asosan, internet orqali faoliyat ko’rsatmoqda. Shu bilan birga,

<sup>1</sup> Наумов С. Общечеловеческие проблемы глобализации // Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. – Саратов, 2005. –С.9

<sup>2</sup> Карагод Ю. Вызовы и ответы глобализации: столкновение цивилизационных парадигм // Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач. – Саратов, 2005. –С.223.

internetdagi axborotlarning ishonchlilik darajasi, ularning kishilar ongi va ma'naviyatiga aks ta'sir etayotgan qayd qilinmoqda"<sup>1</sup>.

Internet, kompyuter o'yinlari, yoshlarda real borliqqa passiv munosabatlarni shakllantirishi mumkin. Eng xavfli tomoni shundaki, internet, kompyuter yoshlarni milliy madaniyatdan, xalqning tarixiy-madaniy an'analarini o'rganish va ularga mehr qo'yishdan chalg'itadi. Biz internetning ijobiy tomonlarini inkor etmoqchi emasmiz, u, shubhasiz, axborotlar topishda, aloqalar o'rnatishda imkoniyatni kengaytiradi. Ammo u kishini real hayotidan uzoqlashtirmasligi, balki ma'naviy dunyosini, o'zligini namoyon etib, yangi munosabatlarni barqarorlashtirib yashashga xizmat qilishi zarur.

Ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar inson dunyoqarashidagi o'zgarishlar oqibati ekanligi qayd etiladi. Bu degani, atrof dunyo haqidagi tasavvurlari hamda global doirada insonlar o'rtasidagi munosabat va o'zaro aloqalarni baholash me'zonlari tizimi yanada chuqurroq va atroflicha o'rganish zaruratidan dalolat beradi. Shuningdek, hozirgi davrda ijtimoiy hayotning yoshlar tabiati hamda talab va ehtiyojlaridan tobora uzoqlashib borayotgani va yoshlar ma'naviy inqirozning chuqurlashib borishga bo'lgan moyilligi masalasidan dalolatdir.

Yevrosentrizmning muhim uydirmalaridan biri texnologik afsona sifatida tanilgan. Unga ko'ra, aynan g'arbda yaratilgan madaniyat, falsafa, huquq, fan va texnologiyalar dunyoda ustuvorlik qilmoqda va yoshlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, boshqa xalqlar tomonidan ilg'or g'arb madaniyatining o'zgartirilishi ularning ravnaqiga turtki bo'ladi. Tan olish kerak, madaniyat o'ziga jalb etadigan jozibali kuch sanaladi. Yoshlarda g'arb madaniyatiga, taqlid qilishga intilish hollari ko'plab uchramoqda.

Hozirgi davrda G'arb madaniyatining yoshlar ongiga osonlik bilan kirib kelishi Amerika madaniyatining jozibadorligi, yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsatadigan Amerika filmlari vositasida kishilarga istagan fikrni, qadriyatni, ko'rsatmalarni singdirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bunday madaniyat kishilarning ongini

---

<sup>1</sup> Qo'chqorov. "milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy – siyosiy jarayonlar". T.-"Akademiya".2007. –B.119

osonlikcha egallash imkoniyatini berayapti, bu esa hozirgi kunda yoshlar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirishda eng maqbul harakatlarga aylanmoqda.

Amerikalik siyosatshunos olim Z.Bjezinskiy Amerika ommaviy madaniyatining jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortishini, uning jozibadorligi, shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir deb biladi. Z.Bjezinskiy tomonidan jozibador deya tasvirlangan G'arb madaniyatida qanday qadriyatlar targ'ib qilinmoqda? Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan madaniyat egasi bo'lgan yosh amerikalik 18 yoshga kelib, kompyuter o'yinlaridagi 40 mingga yaqin qotillikning guvohi yoki "muallifi" bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari, shunday navqiron yoshda u kinofilmlar orqali 200 mingga yaqin zo'ravonlik harakatlarining shohidi bo'lar ekan<sup>1</sup>. Bu jihatdan mutaxassislar g'arb madaniyatiga "o'lim g'oyasini tarqatuvchi madaniyat" sifatini bermoqdalar. Bot-bot ommaviy axborot vositalarida shov-shuvga sabab bo'layotgan hodisalar – maktab o'quvchisining o'z tengdoshlari yoki o'qituvchisiga qarata o'q otishi, qurol bilan o'qalishi ana shu madaniyat ta'sirida yuz berayotgan hodisalar emasmikin?<sup>2</sup>

Iste'molchilik ruxiyatini avj oldirish, "rohatlanish sanoati" ni rivojlantirish, "olomon madaniyati" ni keng yoyish oqibatida g'arbda ma'naviy-axloqiy tanazzul kuzatilmoqda. Qadriyatlar tizimi oyog'I osmondan kelib, ilgari fazilat sanalgan narsalar aybga, avvallari gunoh sifatida qoralangan harakatlar fazilatga aylantirilayapti. G'arb mamlakatlarida jinoyatchilik, giyohvandlik, foxishabozlik, besoqolbozlik kabi illatlarning avj olishi, oilalarning buzulishi, tug'ilishning kamayishi buning yaqqol dalilidir<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda ommaviy hisoblangan reklama ba'zan oddiy ko'rinsa ham aslida madaniy o'zakni qo'porishining kuchli vositasiga aylanayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish zarurligi" haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Shunday ekan, o'zligimizdan

<sup>1</sup> E. Азроянц. «Глобализация: катастрофа или путь к развитию?». М., «Новый век» 2002, -с.40.

<sup>2</sup> О. Аббосхо'jayев, N.Umarova, R.Qo'chqorov "mafkruga paligonlaridagi olishuv". Т.-"Akademiya" 2007, -b.51

<sup>3</sup> E. Азроянц. «Глобализация: катастрофа или путь к развитию?». М., «Новый век» 2002, -С.58

mahrum qilishga intilishlarning payini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga urinishlariga yo'l bermasligimiz kerak. Sir emaski, ayrim kuchlar "demokratiya targ'iboti" shaklida amalga oshirayotgan ishlar to'g'ridan-to'g'ri g'arb turmush tarzining zo'rma-zo'raki tiqishtirilishlarga aylanib kelayapti. Bir paytlar "jahon proletariati inqilobi" qanday eksport qilingan bo'lsa, bugun yot madaniyat, behayolik, uyatsizlik, shavqatsizlik va zo'ravonlik bilan bog'liq g'ayriinsoniy g'oya va qarashlar shunday eksport qilinayapti. Bu "eksport" ning ayrim kuchlar tomonidan "haqiqiy demokratiya" deb nomlanayotgani, ayni tushunchaning obro'sini to'kishdan boshqa narsa emasligini kunday ravshan.

Qolaversa, bu harakatlar kecha yoki bugun boshlanmagani ham ma'lum. Bundan ikki asr muqaddam yashab ijod qilgan farang adibi Markiz de Sadning nomini ko'pchilik eshitgan, albatta. "Sadizm" termini ayni shu yozuvning ismidan olingan. Uning, xususan, "120 дней Садома", "Философия в будуарах" singari tubandan – tuban kitoblarida inson bolasi hayvondan-da battarroq, sharmandaliroq holatlarda tasvirlanadi, jinslararo munosabatlarda hech qanday sharm-hayoga, odob-axloqqa to'g'ri kelmaydigan manzaralar tasvirlanadi...

Bir qarashda, ruhiy aljirashdek tuyuladigan bu asarning mag'zida esa Mark de Sad yashirib o'tirmagan mana bunday g'oyaviy-mafkuraviy maqsad yotadi:

"Biz, - deb yozadi u "Fohishaxonalar falsafasi" asarida, - bundan buyon dunyoni zabt etmoq uchun behisob qo'shin bilan uzoq hududlarga harbiy hujum uyushtirishimiz, jangdan so'ng o'lgan askarlarimiz etigi begona yutlarda chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar mening kitoblarimga o'xshash asarlarda tasvirlangan yashash tarzi va axloqni butun dunyoga asta-sekin muvaffaqiyatli targ'ib qila olsak, shu orqali u yerlarda yashovchi odamlar qalbini egallasak, ularni jisman mahf etishga hech qanday hojat qolmaydi. Qalbi bizning qo'limizga o'tgan xalqlarning o'zi, ixtiyoriy ravishda, oyog'imiz ostiga yuqinib keladi, bizga qul bo'ladilar..."<sup>1</sup>.

Globalashuv jarayonida amerikacha turmush tarzini tiqishtirish, dunyo xalqlarini o'ziga xos tarzda g'arblashtirishga intilish kuzatilmoqda. Tabiiyki,

<sup>1</sup> Abbosxo'jayev. O., Ymarova N., Qo'chqorov R.. mafkura poligonlaridagi olishuv. T.: Akademiya 2007, -B.91.

amerikalashtirish xalqlarning o'ziga xosligi, milliy xususiyatlari, madaniy an'analariga putur yetkazmoqda. Shu o'rinda globallashuvni "yaxlit dunyoning shakllanishi, yagona yirik davlatning qaror topishi, yagona madaniyatiga ega xalqaro hamjamiyatning tarkib topishi jarayoni" sifatida talqin qilayotgan odamlar yodga tushadi. Bu jihatdan aksilglobalistlar globallashuv jarayonini madaniy imperializmning yangi ko'rinishi deb talqin qilayotgani ham bejiz emas.

Ba'zi bir yirik g'arb mamlakatlari tomonidan endigina mustaqillikka erishgan davlatlarni yo'q qilish maqsadida ularga qarata olib borayotgan yovuz harakatlari, ayniqsa yoshlar ongi va qalbini buzib ularga yot g'oyalarni singdirish borasida "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi mafkuraviy tazyiqlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bunday ishlar ayniqsa kino va teatr olamida yengil-yelpi ma'nadan buzuq filmlar va tomoshalar, qo'shtirnoq ichidagi kiyinish madaniyati borasidagi kiyinish bo'yicha moddalar va musiqa san'atida ham yoshlar ma'naviyatiga tez va salbiy ta'sir etadigan shou ko'rsatuvlar va h.k.lar ko'rinishidagi mafkuraviy tazyiqlarni amalga oshirmoqdalar. Bunday ko'rinishdagi barcha yot g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish orqali qilinayotgan harakatlar globallashuv jarayonining eng katta muammolaridandir, chunki bu quyidagi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin, jumladan:

- Yoshlarni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardagi muayyan o'zgarishlarga olib keladi, an'anaviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar tizimini izdan chiqaradi;

- Yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi va, hozirgi zamon jamiyatining qiyofasini o'zgartiradi;

- Yoshlarning ijtimoiy va individual ongida destruktiv o'zgarishlar ro'y beradi;

- Yoshlarning Vatanga, ota-onaga bo'lgan muhabbat, oila muqaddasligi hamda kattaga bo'lgan hurmat his-tuyg'ularning o'lishiga olib kelishi mumkin.

Bunday holatlar qanday oqibatlarga olib kelishini bilib turibmiz, shukurki, ta'lim va tarbiya o'chog'i bo'lgan maktablarimizda mutlaqo boshqa bo'lgan Mark de Sadni ustoz qilib olgan kimsalarning tazyiq va xurujlariga qarshi o'zimizning

ustoz allomalarimiz jumladan, ustozlarimiz Imom Buxoriy va Bahovuddin Naqshband kabi hazratlarning g'oyalari bilan javob beramiz, hamda o'lmas milliy qadriyatlar va an'analarimizni asrab-avaylaymiz. Zero, bu qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillarga qarshi bo'lmay, aksincha, ularning yanada boyitilishi va takomillashtiruviga xizmat qiladi.

Umuman bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” mafkuraviy tazyiq o'tkazishning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan. Iste'molchilik kayfiyati o'zagini tashkil etgan “Ommaviy madaniyat” asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir-oqibatda insonni jon saqlashdan o'zga maqsadi bo'lmagan jonzot, hayvon darajasiga tushuradigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov mafkuraviy tahdidlarning eng zararli ko'rinishlaridan biri bo'lgan “Ommaviy madaniyat” ning mazmun-mohiyati, oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning izchil vosita va omillarini ko'rsatib shunday deydi:”... **hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, “Ommaviy madaniyat”ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday “madaniyat” namunalari faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mohiyat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy savodini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugungi jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart”.**

**2.3. Globallashtirish sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari**

Jahonda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar natijasida bir qator xavf-xatar va tahdidlar hamda muammolar paydo bo'lmoqdaki, hozirgi kunda ularni jiddiy o'rganish zarur. Ayniqsa ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi oxir-oqibatda jamiyatni jiddiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlaridagi mafkuraviy tahdidlar natijasida kata ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy madaniyat va qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzini izdan chiqarayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzini jiddiy xavf ostida qolayotganligini kuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati yoshlarni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham – bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi – jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir inson yaxshi tushunadi.

Bunday tajavvuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga qaratilayotgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov quyidagilarni bildiradi: “Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishi oqibatida ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik

hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit qiz chuqur anglab olishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu issiq haqiqatni yurtimizdagi har ir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit qiz chuqur anglab olishi lozim<sup>1</sup>.

Ana shunday mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bir davrda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasidagi masala bo'lib hisiblanadi. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash – bu jamiyatni ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishini oldini olish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, o'zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish shuningdek, g'oyaviy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bugungi davrda yoshlar qalbiga ona-vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan me'ros muqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularni mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz juda muhim. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi bu – bilim. Ikkinchi elementi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir.

Zero bilimlar qanchalik obektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetining imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarda turli mafkuraviy xurujlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos. Hozirgi kunda g'oyaviy ta'lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasidagi masala bo'lib, bu masalada davlat rahbarining shaxsan o'zi bosh-qosh bo'layotganligi hamda bu sohada uning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch., T.- Ma'naviyat,2008. B.15.

bevosita rahbarligi asosida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab hozirgi kunga qadar chuqur islohitlar olib borilayotganligi buning yaqqol dalilidir.

G'oyaviy, mafkuraviy ta'lim-tarbiya jamiyatda, avvalambor oila, maktablarga yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatni taqozo etadi. Uzluksiz ta'lim tizimi g'oyaviy ta'lim-tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir, zero mazkur tizim mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, hozirgi davr globallashtirish sharoitida mafkuraviy tazyiqlar va xavf-xatarlarning oldini olish vositasi sifatida ilm-fan va ma'rifatga katta e'tibor berildi. Respublikamizda mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab, taraqqiyotning o'ziga xos milliy modeli, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning milliy tamoyillari belgilandi. Shu bilan birga jahonda mafkuraviy, g'oyaviy kurashlar kuchayib borayotgan bir vaqtda, fuqarolarni mafkuraviy tazyiqlardan himoya qilishning chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratildi, aholining, ayniqsa, yoshlarimizning savodxonlik darajasini, ijtimoiy faolligini oshirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan ularda daxldorlik hissini uyg'otish, ta'lim-tarbiyasi, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga asoslangan mustahkam soyosiy, ma'naviy – ma'rifiy, mafkuraviy immunitetni oshirish ana shu milliy tizimning mazmun mohiyatini tashkil etdi. Jumladan, mustaqillikka erishgan ilk kunlaridanoq, yosh avlodning barkamol rivojlanishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi va ta'lim sohasida milliy an'analarimiz hamda jahon talablariga javob beradigan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida" gi Prezident Farmoni hamda ta'limga oid ko'plab hukumat qarorlari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari yoshlarimiz ongini yot g'oyalardan asrashda milliy mafkura va g'oyani ularda shakllantirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi. Bu borada O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 iyundagi 288-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi ijro etish maqsadida respublikamiz Prezidentining 1999 yil 3 sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashi qo'llab – quvvatlash to'g'risida" PF. №2385 sonli farmoni va bu boradagi bir qator hukumat hujjatlari qabul qilindi. Ushbu ishlarning samaradorligini yanada oshirish va rivojlantirish maqsadida 2006 yilning 25 avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya va ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" gi №451-sonli qarori qabul qilindi va bu qarorga asosan Respublika Manaviyat targ'iboti markazi va milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Ularning asosiy vazifalari etib, ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlari olib borish, aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida yurtimizga qaratilgan g'oyaviy va axborot hurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish, olimlar, siyosatchi va mutaxassislar ishtirokida joylarda targ'ibot ishlari yo'lga qo'yishdir.

Bundan tashqari ta'kidlab o'tilgan hukumat qarorlariga asoslangan Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab avaylash, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va bu boradagi ishlar samarasini oshirish va kuchaytirish maqsadida bir qator asosiy vazifalar belgilab qo'yildi:

- O'zbekiston xalqining ma'naviy-madaniy me'rosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g'oyalarni shakllantirish va hayotga tadbiq etish, respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash;

- Aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berish;

- ota-ona, o'qituvchi va ustozlar, oila va mahalla, tarixiy xotira, milliy g'urur, komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod ongiga ta'sirchan usul-uslublar orqali singdirish;

- yoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga va boshqa diniy konferensiyalariga nisbatan hurmat ehtirom hamda bag'rikenglik ruhida tarbiyalash;

- yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish;

- millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, yurtimizda tinchlik, barqarorlik hamda millatlar totuvligini, mintaqa xalqlarining mushtarak ma'naviy – ma'rifiy, madaniy ildizlarini tadqiq va tahlil asosida targ'ib etish;

- dunyo va mamlakatdagi xilma-xil mafkuralar, e'tiqod, g'oyalarni o'rganish, sog'lom dunyoqarash hamda siyosiy madaniyatni shakllantirishda ishtirok etish;

- jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining o'zaro samarali hamkorligiga ko'maklashish;

- ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir ma'ruzalar yuritish, anjuman va suhbatlar o'tkazish va h.k.

Umuman xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq va muhimdir.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni va ushbu masalani birinchi o'ringa qo'yishi talab etadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan, ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, va sharqona hayot falsafasidir.

Bu haqda fikr yurutganda, biz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma'noli so'zlarni eslashimiz lozim. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu

so'zlari asrimiz boshida millatlarimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir-birini taqazo etadigan va bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Biri e'tiborsiz qoldirilsa, ikkinchisi ziyon ko'radi. XX asr boshlaridayoq yurt ozodligi va taraqqiyoti haqida qayg'urgan ziyolilarimiz buni yaxshi anglagan edilar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy ularning umumiy qarashlarini ifodalab "Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari ila himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyotiga, rivojiga ijtirod qilurlar", - deya ta'kidlagan bo'lsa, Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanidagi jadid tili bilan farzandini rus maktabiga berish qaroriga kelgan Miryoqubga javoban: "Bu fikringiz xato, ibtidoiy tarbiyani rus maktablarida berish kerak. Ilgari milliy hissini o'stirib, o'z millatini tanitgandan so'ng rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin. Undan keyin Germaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlariga hatto dunyoning narigi chegarasidagi Amirqoga yuborib o'qitish kerak..."<sup>1</sup>.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Kadrlar tayorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq, jarayon uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki, radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning orzu maqsad va muddaolarimizga ham to'g'ri kelmasligini bilamiz, albatta, chunki nega deganda, biz yurtimizda

<sup>1</sup> Cho'lpon. Asarlar. 2-jild- T., "G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1994. –B.178

ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganimiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Shuning uchun ham, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan shakllantirilishi zarur. Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma'naviy olamning dahlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o'ylantirishi tabiiy.

Hayotda ko'p bora o'z tasdig'ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi tazyiqlarning oldini olish, bu masalada ya'ni bunday kuchayib borayotgan tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi kurashda doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Biz yurtimizda yangi ijtimoiy-iqtisodiy hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu ma'naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat"dir. Shuning uchun ham yurtimizda dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan ta'lim-tarbiya tizimining yangi uch bosqichli modeli yaratilib, amaliyotga tadbiiq qilindi, jahon andozalariga to'liq javob beradigan va zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan umumta'lim maktablari, akademik litsey va kollejlari barpo etilmoqda.

Bugun davlat harajatlarining katta qismi shu sohalarga yo'naltirilgani ham, uning salmog'i yildan-yilga ortib borayotgani ham mamlakatimizda talim-tarbiya tizimi rivojiga kata e'tibor ko'rsatilayotganidan dalolatdir. Bularning barchasi – yurtimizda farzandlarimizning aql-salohiyati, qobiliyati va iqtidorini ro'yobga chiqarish, ularning tom ma'noda barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yoshlarimizning talab-ehtiyojlari hamda manfaatlarini qondirishga qaratilgan.

Bundan bir necha yil ilgari taniqli siyosatshunos S.Xantington bundan buyon butun dunyo faqat gamburgerlar iste'mol qiladi, amerikacha chop etilgan kitoblarni o'qiydi, g'arb televideniyasini ko'radi, amerikacha liboslarni kiyadi, amerikacha madaniyatni qabul qiladi deb taxmin qilgan edi. Bunday qarashlar zahirida qanday mafkuraviy maqsadlar yotganini payqash qiyin emas. Keying vaqtda butun dunyo g'arb rahnamoligida birlashuvi, kelgusida yagona hukumati bo'lgan bitta davlat tashkil topishi, pulga sig'inish va individualizm falsafasini targ'ib etayotgan qarashlar tizimi vujudga kelayotirki, ular dunyo qiyofasini qay tarzda o'zgartirib yuborishi mumkinligini hech kim bashorat qila olmaydi. Shunga qaramay bunday qarashlar barcha vositalar yordamida, xususan, ommaviy axborot vositalari, internet va hatto g'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, kinofilm hamda videofilmlar orqali zo'r berib targ'ib etilmoqda. Shu o'rinda biz global integratsiyaga erishish uchun o'ziga xosligimiz, an'ana va qadriyatlarimizdan voz kechishimiz kerakmi? Yoki mustaqilligimiz, milliy o'zligimiz va xalqimiz taqdiri nima bo'ladi? – degan savollar tug'iladi.

Bugun dunyoni to'r singari o'rab olgan Internet tizimi orqali istagan odam har qanday ma'lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin. Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va sa'viyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmagan holda, xuddi shu tizim orqali oddiy me'yorlarga zid porno-saytlar o'rin olgani, ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoyatkorona guruhlar, terrorist va aqidaparastlar ham bemalol foydalanayotganini ko'zdan kechirib bo'ladimi? Yoki O'zbekiston televideniyasining ayrim kanallari orqali g'arb kompaniyalari mahsulotlari uzluksiz targ'ib etilayotgani qanday maqsadni ko'zlaydi? Yoki biz uchun g'arb kompaniyalari manfaatlari afzalroqmi? – degan savollarning o'z – o'zidan kelib chiqishi tabiiydir.

Xo'sh, bunday vaziyatda yoshlarimiz ongiga Vatanga sadoqat, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ma'naviy merosga yuksak hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bor kuch va salohiyatini mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun nimalar qilish lozim? Bu borada:

- **birinchidan**, ta'lim-tarbiya tizimida o'qitishning yangi, izchil va samarali uslublari joriy etilishi darkor. Sirasini aytganda, maktab, litsey yoki kollej uchun yangi bino qurish, uni zamonaviy asbob-anjomlar bilan jihozlash mumkin, ammo o'qitishda sifat o'zgarishlariga erishmasdan, yuksak malakali, kasbini joni dili bilan sevgan fidoyi muallimlarni tayyorlamasdan, ko'zlangan maqsadlarga erishish qiyin. Bizningcha, pedogok kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashtirish ana shu maqsadga yo'naltirilishi lozim;

- **ikkinchidan**, farzandlar ta'lim-tarbiyasi borasida faqat o'quv yurtinigina emas, ota-ona, mahalla-ko'y va keng jamoatchilik mas'uliyati ham oshirilishi shart. Ayrim yoshlarimizning aqidaparastlar ta'siriga berilayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yo'lga kirib qolayotgani ta'lim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjudligi, o'quv yurti, ota-ona, keng jamoatchilik, saylovlar paytidagina jonlanib ko'rinadigan siyosiy partiyalar, yoshlar tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar faoliyatidagi nomuvofiqlikdan, ular o'rtasida izchil va samarali hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan darak beradi. Bizningcha, tadbirbozlik va va'zxonlik amaliyotidan voz kechib, mamlakat miqyosida milliy istiqloq g'oyasi konsepsiyasiga tayangan holda hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga aloqador tashkilot va muassasalar faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutgan umummilliy harakat dasturining yaratilishi va uni hayotga tadbir qilinishi yuqorida tilga olingan muammolarning hal etilishiga ko'maklashgan bo'lur edi;

- **uchinchidan**, ta'lim-tarbiyada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Milliy g'oya" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish ketma-ketligi va ushbu o'quv fanlar mazmuniga milliy g'oya tamoillarining yoshlar ongiga, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich singdirib borishni ta'minlash, natijada o'quvchi- yoshlarda vatanparvarlik, yurt ravnaqi hamda uning taqdiriga daxldorlik xususiyatlarini tarbiyalashda yagona tizimga keltirishdan iborat;

- **to'rtinchidan**, biz axborot asri, mafkuraviy to'qnashuvlar kuchaygan, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli

ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'siri"<sup>1</sup> doimiy ravishda sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvalo, yoshlar ongida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularda tashqi g'oyaviy ta'sir va hurujlardan himoya qiladigan mustahkam immunitet shakllantirilishi lozim;

- **beshinchidan**, yoshlarimizni ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiruvchi mutaxassis va xodimlarimiz uchun jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul va uslublarni ishlab chiqish, tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash zarur. Shuning uchun ham yoshlarni mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda ta'lim – tarbiyaning orni muhimligi va bu masalada davlatimizning eng asosiy masalasi qilib qo'yilganligi qolaversa, bu masalada davlat rahbarining shaxsan o'zi bosh bo'layotganligi hamda bu sohada uning bevosita rahbarligi asosida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab hozirgi kunga qadar chuqur islohotlar olib borilayotganligi buning dalilidir. Qolaversa, mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan me'ros muqaddas dinga sog'lom munosabatimizni qaror toptirishimiz, ularni mafkuraviy immunitetni shakllantirish mafkuraviy xavfsizligimizni ta'minlashning muhim yo'nalishidir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, biror bir kasallikni davolashdan oldin inson organizmida, avvalo, unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham yoshlarimiz qalbi va ongida zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak turli xil "da'vatchi" larning aldovlariga uchmaydigan, o'z yurti, Vatani va xalqi uchun foydali insonlarni tarbiyalay olamiz. Chunki mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda nafaqat davlat, balki fuqarolar ham mas'uldirlar.

---

<sup>1</sup> I. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga hizmat etsin. "Tafakkur", 1998, 2-son, -B.4



## XULOSA

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar, jamiyatshunos olimlar bu davrni globallashuv davri sifatida baholamoqdalarki, bu baho bugungi shiddatkor zamon voqea va hodisalar mohiyatini to'g'ri baholash va tushunib olishga yordam beradi. Globallashuv natijasida ijtimoiy hayotning turli sohalarda bir qator chegara bilmaydigan muammolar yuzaga keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, terrorizm, narkobiznes, odam savdosi, ma'naviy qashshoqlik, turli mafkuraviy tahdidlar shular jumlasidandir. Mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti mavjud tahdidlarni anglash, ularning manbaalarini o'z vaqtida aniqlash, jamiyatda barqarorlikni saqlash shartlaridan samarali foydalanish kabi omillarga ko'p jihatdan bog'liq. Ayniqsa ma'naviyatga qarshi qaratilgan taxdidlar o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanmoqdaki, bu oxir oqibatda jamiyatni jiddiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini o'rganish, tadqiq qilish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi.

### **I. Xavfsizlik borasida mavjud yondashuvlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish oqibatida quyidagi xulosaga keldik:**

1. "Xavfsizlik" tushunchasi tarixan tabiat-inson-jamiyat tizimi bilan yaqin aloqada bo'lgan ijtimoiy voqelik bo'lib, u mutloq emas, balki o'zining mantiqiy mohiyatini aniq ob'ektlar yoki inson faoliyati doirasi bilan bo'lgan muloqotda aks ettiradi. Shu bois, hanuzgacha xavfsizlikning aniq ta'rifi mavjud emas. Adabiyotlarda keltirilgan izohlar o'sha davr va vaziyatdan kelib chiqqan xolda konkret (aniq) xususiyatlarni tahlil etish natijasida berilgan. Xavfsizlik bugungi kunda inson hayotining barcha sohalarni (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, gumanitar, ekologik va x.k) o'zida mujassam etgan kompleks tizimni tashkil etadi.

1. Xavfsizlik - bu ustuvor darajada siyosat, geosiyosat maydoniga nisbatan qo'llaniladigan, tom ma'noda ma'naviyat, insonlar aro hamjihatlik, o'zaro muruvvatni ifodalaydigan tushunchadir. Mamlakatimizda xavfsizlik masalasiga bag'ishlangan ilmiy- tadqiqot ishlari o'zining dastlabki shakllanish bosqichida va bu yo'lda jahon tajribasidan foydalanish, zamonaviy uslublarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

## **II. Globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlik va mafkuraviy tahdidlarni o'rganish natijasida quyidagi xulosaga kelindi:**

1. Mafkuraviy xavfsizlik – bu shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan himoyalanganlik darajasini tavsiflovchi tushunchadir.

2. Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiiy oqibatlashga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi.

3. Bugungi kunda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy xavf solib turgan mafkuraviy tahdidlar: diniy ekstremizm va fundamentalizm, terrorism, buyuk davlatchilik shovenizmi, millatchilik, “ommaviy madaniyat” (“public culture”) va x.k. shular jumlasidandir.

4. “Ommaviy madaniyat” madaniy globallashuvning, madaniy ekspansiyaning, qolaversa mafkuraviy tazyiqning eng xavfli ko'rinishlaridan biridir. Ommaviy madaniyatning mazmun va mohiyati olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Ularni umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

- “Ommaviy madaniyat”- xalq madaniyati, urf-odatlar, marosimlari, san'ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha;

- “Ommaviy madaniyat”- ommaviy axborot vositalari rivoji bilan bog'liq hodisa;

- “Ommaviy madaniyat”- ommaviy ishlab chiqarish, “ko’ngilochar industriya” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo’ljallangan madaniyatning siyqalashtirilgan namunalari ko’rinishidagi salbiy hodisa. Bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollaridan biriga aylangan.

### **III. Mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish jarayonida quyidagi xulosaga kelindi:**

- Biz globallashuv, axborot asri, mafkuraviy to’qnashuvlar kuchaygan, yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan olis yaqin manbaalardan tarqaladigan, turli ma’no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta’siri” doimiy sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvalo yoshlar ongida mafkuraviy bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik uchun ularni tashqi g’oyaviy ta’sir va hurujlardan himoya qiladigan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirilishi lozim.

- Ta’lim va tarbiyani uyg’unlashgan xolda olib boorish, yoshlarni nafaqat bilimli balki ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishning ta’sirchan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish va ta’lim muassasalari faoliyatida ularni faol qo’llanishini ta’minlash;

- Ta’lim jarayonida yoshlarni diniy- ekstremistik g’oyalar, turli axborot hurujlari qatorida “ommaviy madaniyat” ning salbiy ta’siridan himoya qilish maqsadida, ularni vatanparvarlik, yurtga sadoqat va uning taqdiriga daxldorlik tuyg’ularini singdirish kabi masalalarga alohida e’tiborni qaratish;

- Yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishda ularni boshqa yomon yo’llarga kirib ketishidan saqlashda maktabdan tashqari ta’limning shakllari va mazmunini tubdan yangilash;

- Ta’lim muassasalarining pedogog o’qituvchilarining ota-onalar bilan aloqalarini kuchaytirish, hozirgi globallashuv sharoitlarining salbiy oqibatlarini yuzasidan ota-onalar o’rtasida tushuntirish ishlarini yo’lga qo’yish;

- Yoshlarni begona yot g’oyalardan himoya qilish maqsadida yosh avlod tariyasida, ayniqsa ularni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarida, ta’lim

muassasalarida respublikamizda ko'zga ko'ringan atoqli va taniqli adabiyot va fan, madaniyat va san'at arboblari hamda respublikamizdagi mashxur insolar bilan suxbat va uchrashuvlar o'tkazish va bu borada ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish;

- Davlatimiz olib borayotgan keng ko'lamli islohotlarining mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va dasturlari ahamiyatini keng xalq ommasida targ'ib qilish ishlarini yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy a axborot xurujlardan ko'zlangan maqsadlarni tushuntirish, odamlarni xushyorlik va ogohlikka da'vat etish ishlarini tashkil etishda olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida samarali tushuntirish va targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish.

Yuqorida ta'kidlangan muammolar va ularni yechimi bo'yicha berilayotgan taklif va tavsiyalardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, avvalambor davlatimiz porloq kelajagi uchun qabul qilingan ustuvor isloxtlarda belgilangan vazifalarni to'liq ijrosini ta'minlash muximdir. Ushbu vazifalarni bajarish esa davlatimiz barcha fuqarolarining muqaddas burchidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI****I. Rahbariy adabiyotlar**

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.-Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B.364.
- 1.2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-Toshkent: O'zbekiston, 1996.-B.366.
- 1.3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.1.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B.315.
- 1.4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash- davr talabi. T.5.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B.384.
- 1.5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-B.429.
- 1.6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-Toshkent: O'zbekiston, 1999.-B.413.
- 1.7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.-B.525.
- 1.8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har-birimiz mas'ulmiz. T.9.-Toshkent: O'zbekiston, 2001.-B.439.
- 1.9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10.-Toshkent: O'zbekiston, 2002.-B.432.
- 1.10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l- demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11.-Toshkent: O'zbekiston, 2003.-B.320.
- 1.11. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodemizga bog'liq. T.12.-Toshkent: O'zbekiston, 2004.-B.400.
- 1.12. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13.-Toshkent: O'zbekiston, 2005.-B.448.

1.13. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari oliy qadriyat. T.14.-Toshkent: O'zbekiston, 2006.-B.280.

1.14. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islixlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish- barcha ishlarimizning me'zini va maqsadidir. T.15.-Toshkent: O'zbekiston, 2007.-B.320.

1.15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B.174.

1.16. Karimov I.A. O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shmamajlisidagi "mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish- ustuvor maqsadimizdir" mavzusidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010-yil 28-yanvar, №19 (4934).

1.17. Karimov I.A. Inson manfaati, xuquq va erkinliklarini ta'minlash xayotimizning yanada erkin va farovon bo'lishiga erishish- bizning bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2012-yil, 8-dekabr.

1.18. Karimov I.A

## **II. Asosiy adabiyotlar**

2.1. Омэ.К.<<Безграничный мир>>.- М.:, 1991.

2.2. Азроянц Э. Глобализация: катастрофа или путь к развитию.- М.,Новый век, 2002, С.316.

2.3. Бек У. Что такое глобализация ? Ошибки глобализма- ответы на глобализацию.-М., Прогресс-Традиция, 2001. С.91-92.

2.4. Калаидия И.Д. Культура в прцессе глобализация// Россия и Грузия : диалог и родство культур. Сборник материалов симпозиума. Вып. 1.- СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2003.С.153.

2.5. Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik.-T.: "Akademiya" 2005.-B.81.

2.6. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari.-T.: Ma'naviyat, 2006,B.29.

### III. Qo'shimcha adabiyotlar

- 3.1. Анана К. «Доклад тысячелетие» 2002.С.65.
- 3.2. Ильинский И.М. Глобализация- фундаментальный вызов в системе образования.// Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческих задач.-Саратов, 2005, С.58.
- 3.3. Володин А.Г., Широков Т.К. Глобализация: истоки, тенденции, перспективы// журнал “Полис”, 1995, №5 С.84.
- 3.4. Иванов Д.В. Эволюция концепции глобализации. //http: soc.pu.ru/
- 3.5. Vuukenen P. Garbning halokati// Jaxon adabiyoti jurnali. 2007. №1. В.14.
- 3.6. Giddens A. Runaway world: How Globalisation is Reshaping our Live. New York: Routledge, 2000. P.17.
- 3.7. Запад: уникальность, а не универсальность. Источник: <http://www.russ.u/journal/perestot/97-10-15/hantin.htm>
- 3.8. Appadurai A. Dsjuncture and differene in the global cultural economy/
- 3.9. Хантингтон С. Столкновение цивилизации и преобразование мирового порядка/ Новая постиндустриальная волна на Западе. –М.,1999.
- 3.10. Кессиди Ф.Х. Глобализация и культурная идентичность// Вопросы философии, 2003. №1.С.79.
- 3.11. Глушко Р.И. Западное телевидение и “массовая культура”.- М.:МГУ, 1991.-С.10-11.
- 3.12. Vuukenen P.J. G'arbning xalokati. Jaxon adabiyoti,2007-yil 1-son 32-bet.
- 3.13. Saidov U. “Globallashuv va madaniyatlararo muloqot”, Т.,- “Akademiya”. 2008 В.75
- 3.14. Qo'chqorov V. “Milliyligimizni anglash va ijtimoiy siyosiy jarayonlar” . Т.,-“Akademiya”, 2007.

**IV. Wep resurslar**

<http://www.lex.uz>

<http://www.pravo.uz>

<http://www.allpravo.ru>